

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM TIZIMIDA

TA'LIM MUHITINING TALABALAR TOMONIDAN BAHOLANISHI



Ta'lim dasturlari va o'qitish sifati,
akademik muhit, infratuzilma hamda talabalar
farovonligining qiyosiy tahlili



2026 yilgi Umummilliy talabalar so'rovnomasi
natijalari asosida axborot-tahliliy sharh

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MUHITINING TALABALAR TOMONIDAN BAHOLANISHI

*2026-yilgi Umummilliy talabalar so'rovnomasi natijalari asosida axborot-tahliliy
sharh*

Ta'lim dasturlari va o'qitish sifati, akademik muhit, infratuzilma hamda talabalar farovonligining
qiyosiy tahlili

Toshkent – 2026

Mundarija

I. KIRISH.....	4
1.1. Tahlilning dolzarbligi.....	4
1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari	5
1.3. Tadqiqot ob'ekti va qamrovi.....	6
1.4. Ma'lumotlarni qayta ishlash va qiyosiy tahlil usullari	7
II. RESPONDENTLARNING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK TARKIBI	9
2.1. Talabalarining yosh tarkibi	9
2.2. Talabalarining gender tarkibi	10
2.3. Respondentlarning hududlar bo'yicha taqsimoti	10
III. TA'LIM DASTURLARI VA O'QITISH SIFATINING TALABALAR TOMONIDAN BAHOLANISHI	12
3.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	12
3.2. Hududlar kesimidagi natijalar	13
3.3. OTTlar kesimida baholarning farqlanishi	14
IV. BITIRUVCHILARNI ISHGA JOYLASHTIRISHGA KO'MAKLASHISH FAOLIYATINING BAHOLANISHI	17
4.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	17
4.2. Hududlar kesimidagi natijalar	18
4.3. OTTlar kesimidagi natijalar	20
V. PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING TALABALARGA MUNOSABATI VA AKADEMIK MULOQOT MUHITI	23
5.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	23
5.2. Hududlar kesimidagi natijalar	24
5.3. OTTlar kesimidagi natijalar	25
VI. BAHOLASH TIZIMINING ADOLATLILIGI VA SHAFFOFLIGI	29
6.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	29
6.2. Hududlar kesimidagi natijalar	30
6.3. OTTlar kesimidagi natijalar	32
VII. «HEMIS» AXBOROT TIZIMINING QULAYLIGI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI	36
7.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	36
7.2. Hududlar kesimidagi natijalar	37
7.3. OTTlar kesimidagi natijalar	39
VIII. O'QUV AUDITORIYALARI VA LABORATORIYALAR HOLATINING BAHOLANISHI	42
8.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	42
8.2. Hududlar kesimidagi natijalar	43
8.3. OTTlar kesimidagi natijalar	45
IX. TALABALAR TURAR JOYLARIDAGI YASHASH SHAROITLARINING BAHOLANISHI	48

9.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	48
9.2. Hududlar kesimidagi natijalar	49
9.3. OTTlar kesimidagi natijalar	52
X. O'QUV QO'LLANMALARI VA DARSlikLAR BILAN TA'MINLANGANLIK DARAJASINING BAHOLANISHI	56
10.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	56
10.2. Hududlar kesimidagi natijalar	57
10.3. OTTlar kesimidagi natijalar	59
XI. NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALAR UCHUN YARATILGAN SHAROITLARNING BAHOLANISHI	63
11.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	63
11.2. Hududlar kesimidagi natijalar	64
11.3. OTTlar kesimidagi natijalar	66
XII. PSIXOLOGIK BOSIM VA KAMSITISH HOLATLARINING TARQALGANLIK DARAJASI	70
12.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	70
12.2. Hududlar kesimidagi natijalar	71
12.3. OTTlar kesimidagi natijalar	73
XIII. AKADEMIK HALOLLIK TAMOYILLARIGA RIOYA ETILISHI	76
13.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar	76
13.2. Hududlar kesimidagi natijalar	77
13.3. OTTlar kesimidagi natijalar	78
XIV. ASOSIY XULOSALAR VA AMALIY TAVSIYALAR.....	82
14.1. Tahlilning umumlashtirilgan natijalari	82
14.2. Amaliy tavsiyalar.....	83
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	87

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash faqat ta'lim dasturlarining mazmuni yoki talabalarining o'zlashtirish natijalarini baholash bilan cheklanmaydi. U o'qitish sifati, baholash jarayonlarining adolatligi va shaffofligi, professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabati, raqamli ta'lim xizmatlarining qulayligi, o'quv infratuzilmasi, talabalarni ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash hamda akademik halollik muhitini qamrab oluvchi kompleks jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan, **talabalarining ta'lim jarayoni va ta'lim muhitiga oid fikrlarini muntazam o'rganish** oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatni baholashning muhim axborot manbalaridan biri sanaladi.

Talabalar ta'lim xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi asosiy ishtirokchilar bo'lgani sababli ularning baholari o'quv jarayonidagi ijobiy jihatlar, amaliy muammolar va takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, respondentlar fikrini OTTlarning mulkchilik shakli, hududlar va alohida tashkilotlar kesimida qiyosiy tahlil qilish ta'lim sharoitlari hamda talabalar tajribasidagi farqlarni tizimli baholash uchun muhimdir.

O'zbekistonda talabalar fikrini ta'lim sifatini baholash jarayonlariga kiritishning huquqiy asoslari mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmonida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga **ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim sifati bo'yicha fikrlarini o'rganishga qaratilgan Umummilliy talabalar so'rovnomasini o'tkazish** vazifasi yuklatilgan.¹ Mazkur vazifa talabalar fikrini ta'lim sifatini tashqi baholash va sohadagi xavflarni aniqlash jarayonlarining axborot manbalaridan biri sifatida qo'llash uchun huquqiy asos yaratadi.

Xalqaro yondashuvlarda ham talabalar fikri ta'lim sifatini ta'minlash tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Yevropa oliy ta'lim hududida sifatni ta'minlash standartlari va yo'riqnomalarida (ESG) OTTlar ta'lim dasturlari va faoliyatini samarali boshqarish uchun tegishli ma'lumotlarni yig'ishi, tahlil qilishi va qo'llashi lozimligi belgilangan. Bunday ma'lumotlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-76-son Farmoni. [LexUZ](#) (murojaat sanasi: 06.08.2026).

tarkibiga **talabalarining ta'lim dasturlaridan qoniqish darajasi, o'quv resurslari va qo'llab-quvvatlash xizmatlari holati** ham kiritilgan.²

Buyuk Britaniyada o'tkaziladigan National Student Survey talabalarining ta'lim dasturlari sifatiga oid fikrlarini muntazam o'rganishga qaratilgan. Uning natijalaridan OTTlarda talabalar tajribasini yaxshilash, bo'lajak talabalarining ta'lim yo'nalishini tanlashiga ko'maklashish va jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta'minlash maqsadlarida foydalaniladi.³ Ushbu tajriba talabalar so'rovnomasi natijalari faqat mavjud holatni qayd etish emas, balki ta'lim dasturlari va xizmatlarini takomillashtirishga xizmat qilishi lozimligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, so'rovnoma natijalari respondentlarning shaxsiy tajribasi va subyektiv baholarini ifodalashini hisobga olish zarur. Shu sababli ularni ta'lim sifatining yagona yoki mutlaq bahosi sifatida emas, balki statistik ma'lumotlar, OTTlarning ichki monitoring natijalari va tashqi ekspert baholash materiallarini to'ldiruvchi **muhim tahliliy manba** sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Umummilliy so'rovnoma natijalarini shu yondashuv asosida tahlil qilish ta'lim muhitidagi tizimli tendensiya, hududiy va tashkiliy farqlar hamda qo'shimcha e'tibor talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari

Mazkur axborot-tahliliy sharhning maqsadi 2026-yilgi Umummilliy talabalar so'rovnomasi natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi **ta'lim olish sharoitlari va ta'lim muhiti sifatining talabalar tomonidan baholanishini kompleks tahlil qilishdan** iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun respondentlarning ijtimoiy-demografik tarkibini tavsiflash; ta'lim dasturlari va o'qitish sifati, OTT ma'muriyatining bitiruvchilar bandligiga ko'maklashishi, professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabati, baholash tizimining adolatliligi va shaffofligi hamda HEMIS platformasining qulayligini o'rganish nazarda tutilgan.

Shuningdek, o'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holati, talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlari, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik,

² European Association for Quality Assurance in Higher Education. *Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG)*. 2015. [ENQA](#) (murojaat sanasi: 06.08.2026).

³ Office for Students. *National Student Survey*. [Office for Students](#) (murojaat sanasi: 06.08.2026).

nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar, psixologik bosim va kamsitish holatlari hamda akademik halollik muhitini baholash tahlilining asosiy vazifalari qatoriga kiritilgan.

So'rovnoma natijalari OTTlarning mulkchilik shakllari, hududlar va alohida tashkilotlar kesimida qiyoslanadi. Tahlil asosida **barqaror ijobiy natijalar, tizimli farqlar va qo'shimcha e'tibor talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash**, shuningdek, ta'lim muhitini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyalarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

1.3. Tadqiqot ob'ekti va qamrovi

Tadqiqot ob'ektini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqot predmetini esa ularning ta'lim dasturlari sifati, akademik muhit, o'quv infratuzilmasi, raqamli xizmatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ta'lim olish sharoitlariga oid baholari tashkil etadi.

Umummilliy so'rovnoma 2026-yil 21-yanvardan 7-fevralga qadar **«HEMIS» axborot tizimi orqali onlayn va oflayn shakllarda** o'tkazilgan. Umumiy so'rovnomada qariyb 1 million respondent, jumladan, 890 ming nafar talaba va 48 ming nafar professor-o'qituvchi ishtirok etgan. Mazkur axborot-tahliliy sharhning qamrovi talabalar tomonidan taqdim etilgan javoblar bilan cheklangan bo'lib, professor-o'qituvchilar so'rovnomasi natijalari alohida tahlil ob'ekti hisoblanadi.

So'rovnomaning boshlang'ich qamroviga **200 ta OTT**, jumladan, 99 ta davlat, 72 ta nodavlat va 29 ta xorijiy OTT kiritilgan. Respondentlar O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari – 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrini qamrab olgan.

Yakuniy tahliliy qamrovni shakllantirishda Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizomda belgilangan talablar inobatga olingan.⁴ So'rovnomada ishtirok etgan 200 ta OTTdan 49 tasi faoliyat yuritayotganiga uch yil to'lmagani, bitiruvchilari mavjud emasligi yoki so'rovnomada ishtirok etgan talabalar va professor-o'qituvchilar ulushi

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2026-yil 6-fevraldagi 8-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risida»gi nizom (ro'yxat raqami 3783, 28.02.2026 y.). [LexUZ](#) (murojaat sanasi: 06.08.2026).

ularning umumiy soniga nisbatan belgilangan eng kam **20 foizlik** talabga etmagani sababli yakuniy natijalarni shakllantirishda hisobga olinmagan.

Shu tariqa, mazkur sharhdagi OTTlar kesimidagi qiyosiy tahlil **151 ta oliy ta'lim tashkiloti** ma'lumotlariga asoslangan. Bunda umumrespublika va ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarni talqin qilishda so'rovnomaning umumiy qamrovi, OTTlar kesimidagi natijalarni baholashda esa belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgan yakuniy tahlil qamrovi asos qilib olingan.

1.4. Ma'lumotlarni qayta ishlash va qiyosiy tahlil usullari

So'rovnoma natijalarini o'rganishda tavsifiy statistika va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Respondentlarning har bir savol bo'yicha bergan javoblari tegishli guruhdagi jami javoblar soniga nisbatan foizlarda hisoblangan.

Natijalar uch asosiy kesimda tahlil qilingan. Birinchi kesimda davlat, nodavlat va xorijiy OTTlarda tahsil olayotgan talabalarning baholari o'zaro qiyoslangan. Ikkinchi kesimda ko'rsatkichlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha taqsimoti o'rganilgan. Uchinchi kesimda esa alohida OTTlarda qayd etilgan yuqori va nisbatan past natijalar ajratilgan.

Besh darajali javob shkalasi qo'llanilgan savollarda ijobiy baholar «yaxshi» va «a'lo», salbiy baholar esa «yomon» va «qoniqarsiz» javoblarining yig'indisi asosida umumlashtirilgan. Javob variantlari boshqacha shakllantirilgan savollarda natijalar ularning mazmuniga muvofiq talqin qilingan. Psixologik bosim, kamsitish va akademik halollikka oid savollarda ijobiy-salbiy baholashdan ko'ra, **muayyan holatning qayd etilganlik darajasi** asosiy tahlil mezon sifatida qabul qilingan.

OTTlar kesimidagi yuqori va nisbatan past natijalar alohida savollar bo'yicha javoblar taqsimoti asosida aniqlangan. Mazkur sharhda barcha yo'nalishlarni umumlashtiruvchi yagona integral indeks hisoblanmagan. Shu sababli bir ko'rsatkich bo'yicha yuqori natija qayd etgan OTTni ta'lim muhitining barcha jihatlari bo'yicha mutlaq yetakchi sifatida baholash maqsadga muvofiq emas.

Qiyosiy natijalarni talqin qilishda OTTlarning ixtisoslashuvi, mulkchilik shakli, hududiy joylashuvi, talabalar kontingenti va respondentlar sonidagi farqlar hisobga olingan. Guruhlar o'rtasidagi tafovutlar muayyan omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, biroq so'rovnoma ma'lumotlarining o'zi bunday

bog'liqlikning sababiy xususiyatini to'liq isbotlamaydi. Shu bois aniqlangan farqlarning sabablarini belgilash uchun zarur hollarda ma'muriy ma'lumotlar, sifat ko'rsatkichlari va qo'shimcha o'rganish natijalaridan foydalanish lozim.

II. RESPONDENTLARNING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK TARKIBI


2.1. Talabalarining yosh tarkibi

Respondentlarning yosh tarkibi bo'yicha tahlil oliy ta'lim tizimida an'anaviy talabalik yoshidagi ishtirokchilar ustunlik qilishini ko'rsatadi. So'rovnoma qatnashgan talabalarining eng katta qismi – **50,62 foizi 18–20 yosh** toifasiga mansub. Bu mazkur guruh asosan bakalavriat bosqichining dastlabki kurslarida tahsil olayotgan talabalardan shakllanganini ko'rsatishi mumkin.

21–25 yoshdagi talabalar respondentlarning 28,38 foizini tashkil etgan. Ushbu toifaga bakalavriatning yuqori kurslari va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarining katta qismi kirishi mumkin. Umumiy hisobda **18–25 yoshdagi talabalar ulushi 79,0 foizga** teng bo'lib, so'rovnoma ishtirokchilarining asosiy qismini tashkil etadi.

Kattaroq yosh guruhlarining ulushi nisbatan cheklangan. Jumladan, 26–30 yoshdagi talabalar 7,87 foizni, 31–40 yoshdagilar 8,89 foizni, 41–73 yosh oralig'idagi respondentlar esa 2,23 foizni tashkil etgan. Shu tariqa, 25 yoshdan katta talabalarining umumiy ulushi 18,99 foizga teng bo'lgan.

18 yoshga to'lmagan talabalar ulushi 2,0 foizni tashkil etgan. Ushbu holat ayrim talabalarining umumiy o'rta ta'limni nisbatan erta tamomlashi yoki muayyan ta'lim dasturlariga qabul xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



1-rasm. Talaba-respondentlarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimoti, 2026-yil (%)


Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Yosh tarkibining mazkur taqsimoti respondentlar orasida bakalavriat va magistratura bosqichlaridagi an'anaviy talabalik yoshiga mansub ishtirokchilar ustunligini ko'rsatadi. Katta yoshdagi talabalar ulushining nisbatan pastligi esa ikkinchi oliy ta'lim, qayta tayyorlash va **butun umr davomida ta'lim olish** imkoniyatlaridan foydalanayotgan talabalar ishtiroki cheklangan bo'lishi mumkinligini anglatadi. Biroq bu holatning sabablarini aniqlash uchun ta'lim shakli va bosqichlari bo'yicha qo'shimcha tahlil o'tkazish zarur.

2.2. Talabalarning gender tarkibi

So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning gender tarkibida ayol respondentlar ulushi nisbatan yuqori. Natijalarga ko'ra, **ayollar 57,06 foizni**, erkaklar esa **42,94 foizni** tashkil etgan.

Ayol va erkak respondentlar ulushi o'rtasidagi farq **14,12 foiz punktga** teng. Bu so'rovnomada ayol talabalarning ishtiroki erkak talabalarga nisbatan yuqori bo'lganini ko'rsatadi.



2-rasm. Talaba-respondentlarning gender tarkibi, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


2.3. Respondentlarning hududlar bo'yicha taqsimoti

So'rovnoma O'zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi talabalarni qamrab olgan. Respondentlarning hududlar bo'yicha taqsimotida **eng yuqori ulush Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 25,93 foizni** tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati 10,55 foiz, Toshkent

viloyati 8,51 foiz, Surxondaryo viloyati 7,33 foiz va Buxoro viloyati 7,12 foiz bilan qayd etilgan.

Farg'ona viloyatidagi respondentlar ulushi 6,77 foizni, Qashqadaryo viloyatida 5,63 foizni, Andijon viloyatida 5,31 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,94 foizni va Xorazm viloyatida 4,92 foizni tashkil etgan. Namangan viloyati hissasiga respondentlarning 4,34 foizi, Navoiy viloyatiga 3,15 foizi, Jizzax viloyatiga 3,01 foizi to'g'ri kelgan. **Eng past ulush Sirdaryo viloyatida qayd etilib, 2,47 foizni tashkil etgan.**

Mazkur taqsimot so'rovnoma ishtirokchilarining hududiy tarkibi bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi. Bunda Toshkent shahri va talabalar kontingenti nisbatan katta bo'lgan ayrim hududlarning ulushi yuqoriroq bo'lgan.



3-rasm. Talaba-respondentlarning hududlar bo'yicha taqsimoti, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududiy taqsimot so'rovnoma respublika miqyosida keng geografik qamrovga ega bo'lganini ko'rsatadi. Biroq har bir hududdagi respondentlar ulushi mazkur hududda tahsil olayotgan talabalar umumiy soniga qay darajada mos kelishini baholash uchun so'rovnoma natijalarini rasmiy talabalar kontingenti ma'lumotlari bilan qiyoslash zarur.

III. TA'LIM DASTURLARI VA O'QITISH SIFATINING TALABALAR TOMONIDAN BAHOLANISHI

3.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

Talabalar tomonidan berilgan javoblar ta'lim dasturlarining amalga oshirilishi va o'qitish sifati barcha mulkchilik shaklidagi OTTlarda, umuman, ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Biroq «a'lo», «yaxshi» va salbiy baholar nisbati bo'yicha muayyan farqlar mavjud.

Nodavlat OTTlarda «yaxshi» va «a'lo» baholarining jami ulushi 92,59 foizni tashkil etib, mulkchilik shakllari orasidagi eng yuqori natija sifatida qayd etilgan. Ushbu toifada respondentlarning 38,88 foizi o'qitish sifatini «a'lo», 53,71 foizi esa «yaxshi» deb baholagan. «Qoniqarsiz» va «yomon» javoblarining umumiy ulushi 2,01 foizga teng.

Davlat OTTlarida respondentlarning 63,78 foizi «yaxshi», 24,08 foizi «a'lo» bahosini tanlagan. Ijobiy baholarning jami ulushi 87,86 foizni tashkil etgan bo'lsa, «qoniqarsiz» va «yomon» baholar yig'indisi 3,41 foizga teng bo'lgan. **Salbiy baholarning nisbatan eng yuqori ulushi davlat OTTlarida kuzatilgan.**

Xorijiy OTTlar va ularning filiallarida «a'lo» bahosining ulushi **49,31 foizga etib, alohida baholar orasidagi eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan.** «Yaxshi» bahosi 37,32 foiz, mazkur ikki ijobiy bahoning jami ulushi esa 86,63 foizga teng. Shu bilan birga, ushbu toifada «qoniqarli» bahosining ulushi 10,70 foizni tashkil etib, boshqa mulkchilik shakllariga nisbatan yuqoriroq bo'lgan.

Mulkchilik shakli	Qoniqarsiz	A'lo	Yomon	Qoniqarli	Yaxshi
Davlat OTTlari	2,13%	24,08%	1,28%	8,74%	63,78%
Nodavlat OTTlari	1,20%	38,88%	0,81%	5,41%	53,71%
Xorijiy OTTlari	1,96%	49,31%	0,71%	10,70%	37,32%

1-jadval. Ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil

(%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar nodavlat OTTlarda ijobiy baholarning umumiy ulushi, xorijiy OTTlar va ularning filiallarida esa «a'lo» bahosining ulushi yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq mazkur farqlar ta'lim sifatining ob'ektiv darajasini to'liq ifodalamaydi, chunki ular **respondentlarning shaxsiy tajribasi va subyektiv baholariga** asoslangan. Farqlarning sabablarini aniqlash uchun ta'lim dasturlarining mazmuni, o'qitish usullari, talabalar tarkibi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar bilan birgalikda tahlil o'tkazish zarur.

3.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil barcha hududlarda talabalarning aksariyati ta'lim dasturlari va o'qitish sifatini ijobiy baholaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va salbiy baholar nisbati bo'yicha hududlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

«A'lo» bahosining eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 36,27 foiz miqdorida qayd etilgan. Keyingi yuqori natijalar Xorazm viloyatida 33,04 foizni, Andijon viloyatida 32,98 foizni, Buxoro viloyatida 32,49 foizni va Qashqadaryo viloyatida 32,23 foizni tashkil etgan.

«Yaxshi» bahosining eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida 69,11 foizga teng bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich Jizzax viloyatida 66,80 foizni, Sirdaryo viloyatida esa 65,29 foizni tashkil etgan. **«Yaxshi» va «a'lo» baholarining jami ulushi barcha hududlarda 85 foizdan yuqori** bo'lgani talabalarning ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga munosabati asosan ijobiy shakllanganini ko'rsatadi.

Salbiy baholarning, ya'ni «qoniqarsiz» va «yomon» javoblarining jami ulushi Toshkent shahrida 4,32 foizni tashkil etib, hududlar orasidagi eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich Toshkent viloyatida 3,59 foizga, Samarqand viloyatida 3,57 foizga teng bo'lgan.

«Qoniqarli» bahosining nisbatan yuqori ulushi Toshkent shahrida 9,69 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida 9,23 foizni va Samarqand viloyatida 8,76 foizni tashkil etgan.

Hudud	Qoniqarsiz	A'lo	Yomon	Qoniqarli	Yaxshi
Andijon viloyati	1,27%	32,98%	0,74%	6,84%	58,17%
Buxoro viloyati	1,66%	32,49%	0,96%	6,81%	58,08%
Farg'ona viloyati	1,56%	30,08%	0,94%	7,78%	59,64%
Jizzax viloyati	1,48%	23,52%	0,83%	7,37%	66,80%
Namangan viloyati	1,53%	29,18%	1,06%	7,89%	60,34%
Navoiy viloyati	1,16%	30,15%	0,79%	5,88%	62,03%
Qashqadaryo viloyati	1,21%	32,23%	0,84%	6,11%	59,61%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,75%	18,96%	0,95%	9,23%	69,11%
Samarqand viloyati	2,24%	25,54%	1,33%	8,76%	62,14%
Sirdaryo viloyati	1,32%	25,64%	0,93%	6,81%	65,29%
Surxondaryo viloyati	0,95%	36,27%	0,72%	4,62%	57,44%
Toshkent shahri	2,71%	25,73%	1,61%	9,69%	60,25%
Toshkent viloyati	2,26%	26,14%	1,33%	8,22%	62,05%
Xorazm viloyati	1,06%	33,04%	0,78%	6,01%	59,11%

2-jadval. Hududlar bo'yicha ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga berilgan baholar barcha hududlarda asosan ijobiy ekanini, biroq baholar tarkibi bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi. **Mazkur farqlarni hududlardagi ta'lim sifatining mutlaq tafovuti sifatida talqin qilish to'g'ri emas.** Ularning sabablarini aniqlash uchun respondentlar tarkibi, OTTlarning ixtisoslashuvi, ta'lim shakllari va ta'lim jarayonini tashkil etish xususiyatlari bo'yicha qo'shimcha tahlil talab etiladi.

3.3. OTTlar kesimida baholarning farqlanishi

Tahlil natijalari ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga berilgan baholar OTTlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda «a'lo» bahosining ulushi yuqori va salbiy javoblar deyarli mavjud emas. Boshqa

OTTlarda esa «qoniqarli», «qoniqarsiz» va «yomon» baholarning nisbatan yuqori ulushi kuzatilgan.

«A'lo» bahosining eng yuqori ulushi Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida qayd etilib, 95,36 foizni tashkil etgan. Mazkur OTTda «qoniqarsiz» va «yomon» javoblari qayd etilmagan. G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida respondentlarning 87,64 foizi, Buxoro innovatsiyalar universitetida esa 83,96 foizi ta'lim dasturlari va o'qitish sifatini «a'lo» deb baholagan.

«A'lo» bahosining yuqori ulushi Adju universitetida 62,99 foizni, Toshkent amaliy fanlar universitetida 62,37 foizni va Tashkent International University of Education xalqaro universitetida 56,91 foizni tashkil etgan.

OTT nomi	Qoniqarsiz	A'lo	Yomon	Qoniqarli	Yaxshi
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	0,00%	95,36%	0,00%	0,50%	4,14%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	0,14%	87,64%	0,14%	0,83%	11,25%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	0,06%	83,96%	0,16%	1,03%	14,80%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	2,14%	62,99%	0,49%	7,15%	27,22%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	0,44%	62,37%	0,16%	2,72%	34,30%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	0,68%	56,91%	0,17%	3,99%	38,25%
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	0,71%	56,47%	0,28%	24,75%	17,78%
«Turon» universiteti	0,97%	54,47%	0,89%	4,28%	39,39%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	1,76%	54,46%	0,41%	10,00%	33,38%
«Ma'mun» universiteti	0,47%	52,01%	0,34%	3,39%	43,79%

3-jadval. Ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga «a'lo» bahosining ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda salbiy va «qoniqarli» baholarning nisbatan yuqori ulushi aniqlangan. **Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy**

rassomlik va dizayn institutida «qoniqarsiz» va «yomon» baholarining jami ulushi 8,10 foizni, «qoniqarli» bahosi esa 16,80 foizni tashkil etgan.

Salbiy baholarning umumiy ulushi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 7,61 foizni, Toshkent davlat texnika universitetida 7,30 foizni va Diplomat universitetida 7,14 foizni tashkil etgan. Toshkent arxitektura-qurilish universitetida ushbu ko'rsatkich 6,59 foizga, «Millat umidi» universitetida 6,54 foizga va O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 6,50 foizga teng bo'lgan.

Mazkur OTTlarda ham «yaxshi» bahosi asosiy o'rinni egallagan. Shu sababli ularni ta'lim sifati past OTTlar sifatida emas, balki **salbiy va o'rtacha baholar ulushi boshqa OTTlarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan tashkilotlar** sifatida talqin qilish lozim. Tegishli natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qoniqarsiz	A'lo	Yomon	Qoniqarli	Yaxshi
Diplomat universiteti	3,57%	16,69%	3,57%	11,99%	64,18%
Toshkent davlat texnika universiteti	4,23%	15,48%	3,07%	12,31%	64,91%
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	5,42%	10,92%	2,68%	16,80%	64,18%
Toshkent davlat transport universiteti	3,29%	16,07%	2,64%	9,96%	68,04%
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	3,94%	14,25%	2,56%	12,12%	67,13%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	4,13%	15,60%	2,46%	11,81%	66,00%
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	5,19%	15,07%	2,42%	12,58%	64,74%
University of management and future technologies	2,98%	27,10%	2,36%	8,11%	59,45%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	3,48%	17,38%	2,32%	10,37%	66,45%
Millat umidi universiteti	4,29%	18,51%	2,25%	11,33%	63,62%

4-jadval. Ta'lim dasturlari va o'qitish sifatiga salbiy hamda «qoniqarli» baholarning ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimida kuzatilgan farqlar talabalarning ta'lim jarayoniga munosabati bir xil emasligini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma natijalari mazkur farqlarning sabablarini bevosita belgilab bermaydi. Shu bois **salbiy va «qoniqarli» baholar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlarda** ta'lim dasturlarining mazmuni, o'qitish usullari, baholash amaliyoti va talabalar bilan qayta aloqa mexanizmlarini qo'shimcha o'rganish maqsadga muvofiq.

IV. BITIRUVCHILARNI ISHGA JOYLASHTIRISHGA KO'MAKLASHISH FAOLIYATINING BAHOLANISHI

4.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

OTT ma'muriyatining talabalar va bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyati ta'limdan mehnat bozoriga o'tish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'rovnoma natijalari mazkur yo'nalishdagi qo'llab-quvvatlash darajasi OTTlarning mulkchilik shakliga qarab farqlanishini ko'rsatadi.

Xorijiy OTTlar va ularning filiallarida respondentlarning 41,01 foizi ma'muriyat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishini qayd etgan. Yana 33,17 foiz respondent ma'muriyat, umuman, zarur yordam ko'rsatishini bildirgan. Ushbu ikki javobning jami ulushi 74,18 foizni tashkil etib, mulkchilik shakllari orasidagi eng yuqori natija bo'lgan. Yordam umuman ko'rsatilmasligini bildirganlar ulushi esa 6,52 foizga teng.

Nodavlat OTTlarda respondentlarning 43,45 foizi ma'muriyat tomonidan umumiy qo'llab-quvvatlash mavjudligini, 25,93 foizi esa har tomonlama yordam ko'rsatilishini qayd etgan. Mazkur javoblarning umumiy ulushi 69,38 foizni tashkil etgan. Faqat rasmiy ko'mak ko'rsatilishini bildirganlar 7,75 foizni, yordam mavjud emasligini qayd etganlar esa 9,64 foizni tashkil qilgan.

Davlat OTTlarida «umuman qo'llab-quvvatlaydi» javobi 43,00 foiz bilan ustunlik qilgan, har tomonlama qo'llab-quvvatlash mavjudligini bildirganlar ulushi esa 19,70 foizga teng bo'lgan. **Faqat rasmiy ko'mak ko'rsatilishi va yordam umuman mavjud emasligini bildirgan javoblarning jami ulushi davlat OTTlarida 21,24 foizni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkich sifatida** qayd etilgan.

OTT ma'muriyatining ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar **5-jadvalda keltirilgan.**

Mulkchilik shakli	Umuman qo'llab-quvvatlaydilar	Har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar	Ba'zan qo'llab-quvvatlaydilar	Faqat rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar	Hech qanday yordam yo'q
Davlat OTTlari	43,00%	19,70%	16,05%	9,84%	11,40%
Nodavlat OTTlari	43,45%	25,93%	13,23%	7,75%	9,64%
Xorijiy OTTlari	33,17%	41,01%	12,58%	6,73%	6,52%

5-jadval. OTT ma'muriyatining ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar xorijiy va nodavlat OTTlarda ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyatiga berilgan ijobiy baholar ulushi davlat OTTlariga nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Biroq ushbu farqlar **karyera xizmatlarining amaldagi natijadorligini bevosita ifodalamaydi**, balki talabalarning mazkur xizmatlar mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlariga oid qarashlarini aks ettiradi. Ob'ektiv natijadorlikni baholash uchun ushbu ma'lumotlarni bitiruvchilarning bandlik darajasi, ishga joylashish muddati va ish beruvchilar bilan hamkorlik ko'rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

4.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar bo'yicha tahlil OTT ma'muriyatining ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyati aksariyat hollarda ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Biroq qo'llab-quvvatlash darajasi va uning talabalar tomonidan qabul qilinishi bo'yicha muayyan hududiy farqlar kuzatilgan.

«Umuman qo'llab-quvvatlaydi» va «har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi» javoblarining jami ulushi **Surxondaryo viloyatida 70,69 foizni tashkil etib, hududlar orasidagi eng yuqori natija** sifatida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich Andijon viloyatida 69,92 foizni, Xorazm viloyatida 66,91 foizni, Sirdaryo viloyatida 66,69 foizni, Buxoro viloyatida 66,44 foizni va Farg'ona viloyatida 66,36 foizni tashkil etgan.

Alohida javoblar kesimida «umuman qo'llab-quvvatlaydi» bahosining eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida 46,39 foizga teng bo'lgan. Keyingi yuqori natijalar Surxondaryo viloyatida 44,76 foiz, Buxoro viloyatida 44,66 foiz va Sirdaryo viloyatida 44,21 foiz miqdorida qayd etilgan.

Har tomonlama qo'llab-quvvatlash mavjudligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Andijon viloyatida – 26,35 foiz miqdorida kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 25,93 foizni, Xorazm viloyatida 24,73 foizni va Farg'ona viloyatida 24,14 foizni tashkil etgan.

Faqat rasmiy ko'mak ko'rsatilishi va yordam umuman mavjud emasligini bildirgan javoblarning jami ulushi **Toshkent shahrida 23,08 foiz bilan eng yuqori darajada** qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich Toshkent viloyatida 22,17 foizni, Samarqand viloyatida 20,74 foizni, Qashqadaryo viloyatida 20,67 foizni va Namangan viloyatida 20,36 foizni tashkil qilgan.

Ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyatiga hududlar bo'yicha berilgan baholarning to'liq taqsimoti **6-jadvalda keltirilgan**.

Hudud	Umuman qo'llab-quvvatlaydilar	Har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar	Ba'zan qo'llab-quvvatlaydilar	Faqat rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar	Hech qanday yordam yo'q
Andijon viloyati	43,57%	26,35%	14,41%	7,25%	8,43%
Buxoro viloyati	44,66%	21,78%	14,32%	8,52%	10,72%
Farg'ona viloyati	42,22%	24,14%	13,88%	9,25%	10,52%
Jizzax viloyati	43,51%	20,95%	15,82%	9,87%	9,85%
Namangan viloyati	42,33%	22,15%	15,16%	9,38%	10,98%
Navoiy viloyati	41,22%	23,62%	15,97%	9,10%	10,10%
Qashqadaryo viloyati	40,32%	23,16%	15,84%	9,31%	11,36%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	46,39%	18,59%	17,79%	8,49%	8,75%
Samarqand viloyati	41,79%	20,74%	16,73%	9,92%	10,82%
Sirdaryo viloyati	44,21%	22,48%	16,46%	8,48%	8,37%
Surxondaryo viloyati	44,76%	25,93%	13,46%	7,14%	8,71%
Toshkent shahri	42,96%	18,77%	15,19%	10,31%	12,77%
Toshkent viloyati	42,97%	20,07%	14,78%	10,09%	12,08%
Xorazm viloyati	42,18%	24,73%	15,72%	7,87%	9,51%

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar ishga joylashtirishga ko'maklashish faoliyatining talabalar tomonidan qabul qilinishi hududlar kesimida bir xil emasligini ko'rsatadi. **Qo'llab-quvvatlashga berilgan yuqori baho uning amaldagi natijadorligini avtomatik ravishda tasdiqlamaydi.** Shu sababli mazkur natijalarni hududlardagi karyera markazlari faoliyati, ish beruvchilar bilan hamkorlik ko'lami va bitiruvchilarning haqiqiy bandlik ko'rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish lozim.

4.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil ma'muriyat tomonidan ishga joylashtirishga ko'rsatilayotgan ko'mak haqidagi talabalar fikri bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda har tomonlama qo'llab-quvvatlash mavjudligi yuqori baholangan bo'lsa, boshqalarida yordam umuman ko'rsatilmasligi yoki faqat rasmiy xususiyatga egaligi haqidagi javoblar nisbatan ko'p qayd etilgan.

«Hech qanday yordam yo'q» javobining eng yuqori ulushi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida – 24,79 foiz miqdorida kuzatilgan. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ushbu ko'rsatkich 23,72 foizni, University of Management and Future Technologies universitetida 19,98 foizni, Diplomat universitetida 18,59 foizni va Aniq va ijtimoiy fanlar universitetida 18,41 foizni tashkil etgan.

Faqat rasmiy ko'mak ko'rsatilishi va yordam mavjud emasligini bildirgan javoblarning jami ulushi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida 38,74 foizni, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 36,95 foizni tashkil etgan.

OTT nomi	Umuman qo'llab-quvvatlaydilar	Har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar	Ba'zan qo'llab-quvvatlaydilar	Faqat rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar	Hech qanday yordam yo'q
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	32,38%	15,74%	14,93%	12,16%	24,79%
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	29,18%	13,90%	18,18%	15,02%	23,72%
University of management and future technologies	37,88%	17,59%	13,63%	10,93%	19,98%
Diplomat universiteti	39,47%	12,99%	18,42%	10,53%	18,59%
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	38,86%	17,33%	15,39%	10,01%	18,41%
TMS instituti	39,67%	15,93%	17,14%	9,67%	17,58%
Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	37,14%	22,86%	11,43%	11,43%	17,14%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	40,53%	13,85%	16,10%	12,49%	17,03%
Toshkent davlat agrar universiteti	38,21%	14,78%	16,70%	13,41%	16,89%
O'zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	21,74%	46,67%	10,43%	4,35%	16,81%

7-jadval. Ishga joylashtirishga ko'mak mavjud emasligi haqidagi javoblar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ayrim OTTlarda qarama-qarshi baholar bir vaqtning o'zida yuqori ulushga ega. Masalan, Qozon federal universitetining Jizzax shahridagi filialida respondentlarning 46,67 foizi har tomonlama qo'llab-quvvatlash mavjudligini bildirgan bo'lsa, 16,81 foizi yordam umuman ko'rsatilmasligini qayd etgan. **Bu natija talabalarining karyera xizmatlaridan xabardorligi yoki ulardan foydalanish imkoniyati bir xil emasligi ehtimolini ko'rsatadi va alohida o'rganishni talab etadi.**

Har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha **eng yuqori natija Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida qayd etilib, 96,62 foizni tashkil etgan.** Mazkur OTTda yordam mavjud emasligini bildirganlar ulushi 0,13 foizga teng bo'lgan. G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida har tomonlama qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichi 78,06 foizni, Toshkent shahridagi Amiti universitetida 54,51 foizni va Adju universitetida 54,36 foizni tashkil qilgan. Har tomonlama qo'llab-

quvvatlash mavjudligini bildirgan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 8-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Umuman qo'llab-quvvatlaydilar	Har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar	Ba'zan qo'llab-quvvatlaydilar	Faqat rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar	Hech qanday yordam yo'q
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	2,26%	96,62%	1,00%	0,00%	0,13%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	13,75%	78,06%	2,50%	3,47%	2,22%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	21,99%	54,51%	13,11%	5,87%	4,51%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	20,72%	54,36%	16,28%	5,26%	3,37%
O'zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali.	21,74%	46,67%	10,43%	4,35%	16,81%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	38,62%	41,79%	8,86%	5,54%	5,19%
«Turon» universiteti	35,80%	37,23%	12,18%	5,83%	8,96%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	59,40%	36,21%	2,21%	1,06%	1,12%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	46,73%	35,11%	9,41%	3,22%	5,51%
«Ma'mun» universiteti	39,77%	34,73%	12,11%	5,93%	7,46%

8-jadval. Ishga joylashtirishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash mavjudligini bildirgan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnomaga ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi natijalar talabalarining ishga joylashtirishga oid xizmatlardan xabardorligi va ulardan foydalanish tajribasi turlicha ekanini ko'rsatadi. **Salbiy baholar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlarda** karyera markazlarining qamrovi, xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ish beruvchilar bilan hamkorlik va talabalarni axborot bilan ta'minlash mexanizmlarini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

V. PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING TALABALARGA MUNOSABATI VA AKADEMIK MULOQOT MUHITI

5.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, kasbiy muloqot hamda pedagogik etika ta'lim muhitining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. So'rovnoma natijalari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, respondentlarning aksariyati professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabatini ijobiy baholaganini ko'rsatadi.

Doimiy ravishda o'zaro hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi nodavlat OTTlarda – 33,10 foiz miqdorida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 28,71 foizni, davlat OTTlarida esa 25,75 foizni tashkil etgan.

Barcha mulkchilik shakllarida «qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi» javobi salmoqli o'rin egallagan. Mazkur javob davlat OTTlarida 53,57 foizni, nodavlat OTTlarda 48,97 foizni, xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 47,72 foizni tashkil qilgan.

Dastlabki uchta ijobiy javobning umumiy ulushi xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 95,08 foizni, nodavlat OTTlarda 94,01 foizni va davlat OTTlarida 92,96 foizni tashkil etgan. **Qo'pol munosabatlar mavjudligi va ularga nisbatan ko'rilyotgan choralar samarasizligini ifodalovchi ikki javobning jami ulushi davlat OTTlarida 7,04 foiz bilan eng yuqori bo'lgan.** Mazkur ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 5,99 foizni, xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 4,91 foizni tashkil etgan.

Professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar **9-jadvalda keltirilgan.**

Mulkchilik shakli	Doimo o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar	Qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi	Umuman olganda, hurmatli munosabat	Qo'pol munosabatlar kuzatiladi, ko'rilyotgan choralar samarasiz	Qo'pol va hurmatsiz munosabat
Davlat OTTlari	25,75%	53,57%	13,64%	1,76%	5,28%
Nodavlat OTTlari	33,10%	48,97%	11,94%	1,46%	4,53%
Xorijiy OTTlari	28,71%	47,72%	18,65%	1,72%	3,19%

9-jadval. Professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar barcha mulkchilik shakllarida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar asosan ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **qo'pol yoki hurmatsiz munosabat mavjudligini bildirgan javoblar ulushi kichik bo'lsa-da, ularni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.** Bunday holatlarning xususiyati va sabablarini aniqlash uchun talabalar murojaatlari, odob-axloq komissiyalari ma'lumotlari hamda ichki shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari bo'yicha qo'shimcha tahlil o'tkazish zarur.

5.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi natijalar professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar mamlakatning barcha hududlarida asosan ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Javoblarning asosiy qismi doimiy yoki umumiy hurmatga asoslangan munosabat mavjudligi hamda qo'pol munosabat holatlari juda kam uchrashini ifodalovchi variantlarga to'g'ri kelgan.

Doimiy ravishda o'zaro hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirganlarning eng yuqori ulushi Xorazm viloyatida – 31,91 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 30,64 foizni, Farg'ona viloyatida 30,24 foizni va Andijon viloyatida 30,14 foizni tashkil etgan.

Ushbu javobning nisbatan past ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,34 foiz, Toshkent viloyatida 25,04 foiz, Jizzax viloyatida 26,27 foiz va Toshkent shahrida 26,85 foiz miqdorida kuzatilgan. Biroq mazkur hududlarda ham «qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi» va «umuman, hurmatli munosabat mavjud» javoblari yuqori ulushga ega.

Qo'pol munosabatlar mavjudligi va ularga nisbatan ko'rilayotgan choralar samarasizligini ifodalovchi ikki javobning jami ulushi **Toshkent viloyatida 7,56 foiz bilan eng yuqori** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 7,52 foizni, Samarqand viloyatida 7,41 foizni, Toshkent shahrida 7,25 foizni va Qashqadaryo viloyatida 6,96 foizni tashkil etgan.

Faqat «qo'pol va hurmatsiz munosabat mavjud» javobi bo'yicha eng yuqori ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida 5,94 foiz miqdorida qayd etilgan. **Eng past umumiy salbiy ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 4,72 foiz**

bo'lgan. Hududlar bo'yicha baholarning to'liq taqsimoti 10-jadvalda keltirilgan.

HUDUD	Doimo o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar	Qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi	Umuman olganda, hurmatli munosabat	Qo'pol munosabatlar kuzatiladi, ko'rilayotgan choralar samarasiz	Qo'pol va hurmatsiz munosabat
Andijon viloyati	30,14%	51,89%	12,62%	1,29%	4,06%
Buxoro viloyati	27,38%	52,88%	12,94%	1,69%	5,12%
Farg'ona viloyati	30,24%	51,92%	11,79%	1,54%	4,51%
Jizzax viloyati	26,27%	53,78%	13,69%	1,40%	4,86%
Namangan viloyati	27,30%	53,62%	12,59%	1,57%	4,93%
Navoiy viloyati	28,28%	51,56%	13,86%	1,51%	4,80%
Qashqadaryo viloyati	29,32%	50,35%	13,37%	1,76%	5,20%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23,34%	55,53%	13,61%	1,58%	5,94%
Samarqand viloyati	26,93%	51,47%	14,19%	1,89%	5,52%
Sirdaryo viloyati	29,15%	53,31%	12,82%	1,09%	3,63%
Surxondaryo viloyati	30,64%	51,73%	12,02%	1,25%	4,35%
Toshkent shahri	26,85%	51,97%	13,93%	1,95%	5,30%
Toshkent viloyati	25,04%	54,11%	13,30%	1,90%	5,66%
Xorazm viloyati	31,91%	50,16%	11,91%	1,34%	4,68%

10-jadval. Professor-o'qituvchilarning talabalarga munosabatiga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududlar o'rtasidagi farqlar katta bo'lmasa-da, ayrim hududlarda salbiy munosabat haqidagi javoblar ulushi nisbatan yuqoriroq. **Har qanday qo'pol yoki hurmatsiz munosabat holati talabalarning psixologik xavfsizligi va ta'lim jarayonidagi ishtirokini cheklashi mumkin.** Shu sababli bunday javoblar nisbatan ko'p qayd etilgan hududlarda murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi, pedagogik etika talablariga rioya etilishi va talabalar uchun ishonchli qayta aloqa mexanizmlarini qo'shimcha o'rganish zarur.

5.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarga berilgan baholar sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda doimiy hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirgan

javoblar ustun bo'lsa, boshqalarida qo'pol va hurmatsiz munosabat haqidagi javoblar nisbatan yuqori ulushga ega.

Doimiy ravishda o'zaro hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirganlarning eng yuqori ulushi Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida – 95,24 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur OTTda qo'pol va hurmatsiz munosabat haqidagi javoblar qayd etilmagan, ko'rilyotgan choralar samarasizligini bildirganlar ulushi esa 0,13 foizni tashkil qilgan.

ISFT institutida respondentlarning 86,73 foizi doimiy hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirgan. Ushbu ko'rsatkich Adju universitetida 60,77 foizni, Central Asian Medical Universityda 59,48 foizni, Toshkent shahridagi Amiti universitetida 57,36 foizni va Qozon federal universitetining Jizzax shahridagi filialida 52,46 foizni tashkil etgan.

Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida doimiy hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirgan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar **11-jadvalda keltirilgan.**

11-jadval. Doimiy hurmatga asoslangan munosabat mavjudligini bildirgan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

OTT nomi	Doimo o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar	Qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi	Umuman olganda, hurmatli munosabat	Qo'pol munosabatlar kuzatiladi, ko'rilayotgan choralar samarasiz	Qo'pol va hurmatsiz munosabat
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	95,24%	4,26%	0,38%	0,13%	0,00%
ISFT instituti	86,73%	12,82%	0,12%	0,12%	0,22%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	60,77%	19,65%	16,12%	0,74%	2,71%
Central Asian Medical University	59,48%	38,05%	1,51%	0,27%	0,69%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	57,36%	30,38%	9,95%	1,09%	1,23%
O'zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	52,46%	35,65%	10,43%	0,29%	1,16%
«Ma'mun» universiteti	40,48%	44,06%	10,12%	1,62%	3,73%
Yangi O'zbekiston universiteti	39,79%	51,31%	6,28%	0,26%	2,36%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	38,71%	47,62%	10,68%	0,70%	2,30%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	38,39%	58,71%	2,06%	0,22%	0,62%

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qo'pol va hurmatsiz munosabat mavjudligini bildirgan javoblarning **eng yuqori ulushi Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida - 10,40 foiz** miqdorida qayd etilgan. Ko'rilayotgan choralar samarasizligini bildirgan javoblar bilan birgalikda mazkur OTTda umumiy salbiy baholar ulushi 15,10 foizni tashkil etgan.

Umumiy salbiy baholar ulushi Toshkent arxitektura-qurilish universitetida 12,06 foizni, Toshkent davlat transport universitetida 11,72 foizni, Samarqand davlat tibbiyot universitetida 11,03 foizni va Toshkent davlat texnika universitetida 10,63 foizni tashkil qilgan. Qo'pol va hurmatsiz munosabat haqidagi javoblar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar **12-jadvalda keltirilgan.**

12-jadval. Qo'pol va hurmatsiz munosabat mavjudligini bildirgan javoblar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

OTT nomi	Doimo o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar	Qo'pol munosabat holatlari juda kam uchraydi	Umuman olganda, hurmatli munosabat	Qo'pol munosabatlar kuzatiladi, ko'rilayotgan choralar samarasiz	Qo'pol va hurmatsiz munosabat
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	12,82%	47,15%	24,93%	4,70%	10,40%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	18,90%	53,82%	15,23%	2,84%	9,22%
Toshkent davlat transport universiteti	17,36%	57,90%	13,02%	2,91%	8,81%
Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	11,43%	45,71%	34,29%	0,00%	8,57%
Toshkent davlat texnika universiteti	18,85%	56,65%	13,88%	2,75%	7,88%
Samarqand davlat tibbiyot universiteti	21,54%	48,20%	19,23%	3,36%	7,67%
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	26,44%	54,15%	10,44%	1,41%	7,56%
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	20,28%	55,01%	14,63%	2,82%	7,27%
Qoraqalpog' qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	19,97%	58,96%	11,81%	2,00%	7,27%
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	22,78%	55,37%	12,86%	1,75%	7,24%

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi salbiy javoblar ulushi nisbatan kichik bo'lsa-da, ular **pedagogik etika, muloqot madaniyati va talabalarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni** ko'rsatadi. Mazkur natijalarni muayyan OTTda qo'pol munosabatlar keng tarqalganining qat'iy dalili sifatida emas, balki ichki o'rganish o'tkazish uchun tahliliy signal sifatida talqin qilish lozim.

VI. BAHOLASH TIZIMINING ADOLATLILIGI VA SHAFFOFLIGI

6.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

Baholash jarayonining adolatliligi, shaffofligi va xolisligi talabalarning ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'rovnoma natijalari barcha mulkchilik shaklidagi OTTlarda respondentlarning asosiy qismi amaldagi baholash tizimini ijobiy baholaganini ko'rsatadi.

Baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblagan respondentlarning eng yuqori ulushi nodavlat OTTlarda – 79,94 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 76,69 foizni, davlat OTTlarida esa 71,19 foizni tashkil qilgan.

«To'liq adolatli va shaffof» hamda «umuman adolatli, qoidabuzarliklar kam uchraydi» javoblarining jami ulushi xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 87,07 foizni, nodavlat OTTlarda 86,75 foizni va davlat OTTlarida 81,27 foizni tashkil etgan. Bu barcha mulkchilik shakllarida baholash tizimiga nisbatan ijobiy munosabat ustunligini ko'rsatadi.

Qisman shaffoflik va ayrim qoidabuzarliklar mavjudligini bildirgan javoblarning eng yuqori ulushi davlat OTTlarida 12,58 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 8,64 foizni, nodavlat OTTlarda 7,96 foizni tashkil etgan.

Baholash tizimini adolatsiz deb hisoblagan hamda korrupsiya yoki proteksionizm mavjudligini bildirgan javoblarning jami ulushi davlat OTTlarida 6,14 foiz bilan eng yuqori bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 5,28 foizni, xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 4,29 foizni tashkil qilgan.

Mulkchilik shakli	Umuman olganda adolatli, qoidabuzarliklar kam uchraydi	To'liq adolatli va shaffof	Qisman shaffof, ayrim qoidabuzarliklar uchrab turadi	Adolatsiz, korrupsiya holatlari mavjud	Shaffof emas, proteksionizm keng tarqalgan
Davlat OTTlari	10,08%	71,19%	12,58%	4,18%	1,96%
Nodavlat OTTlari	6,81%	79,94%	7,96%	3,62%	1,66%
Xorijiy OTTlari	10,38%	76,69%	8,64%	2,70%	1,59%

13-jadval. Baholash tizimining adolatliligi va shaffofligiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar baholash tizimi barcha mulkchilik shakllarida asosan adolatli va shaffof deb qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Biroq **korrupsiya, proteksionizm yoki shaffoflikning yetishmasligi haqidagi javoblar tasdiqlangan huquqbuzarliklar sonini emas, respondentlarning baholash jarayoniga oid qarashlarini ifodalaydi.** Shu sababli ushbu natijalarni apellyatsiya murojaatlari, akademik qoidabuzarliklar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar va ichki nazorat natijalari bilan birgalikda o'rganish zarur.

6.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil mamlakatning barcha hududlarida baholash tizimiga nisbatan ijobiy fikrlar ustunligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, baholash jarayonlarining to'liq shaffofligi, qisman qoidabuzarliklar hamda adolatsizlikka oid javoblar ulushi bo'yicha muayyan farqlar mavjud.

Baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblagan respondentlarning eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 78,93 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich Xorazm viloyatida 78,14 foizni, Sirdaryo viloyatida 77,96 foizni va Navoiy viloyatida 77,08 foizni tashkil etgan.

To'liq adolatli va shaffof baholash mavjudligini bildirgan javoblarning nisbatan past ulushi Toshkent shahrida 69,28 foiz, Samarqand viloyatida 70,42 foiz, Toshkent viloyatida 73,26 foiz va Jizzax viloyatida 73,54 foiz miqdorida kuzatilgan. Toshkent shahrida qisman shaffoflik va ayrim qoidabuzarliklar mavjudligini bildirganlar ulushi ham 13,14 foiz bilan hududlar orasidagi eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan.

Baholash tizimini adolatsiz deb hisoblagan hamda korrupsiya yoki proteksionizm mavjudligini bildirgan javoblarning jami ulushi **Toshkent viloyatida 6,80 foiz bilan eng yuqori** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich Samarqand viloyatida 6,75 foizni, Toshkent shahrida 6,53 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida 6,42 foizni va Qashqadaryo viloyatida 6,09 foizni tashkil etgan.

Alohida javoblar bo'yicha korrupsiya holatlari mavjudligini bildirganlarning eng yuqori ulushi Samarqand viloyatida 4,77 foizga, proteksionizm keng tarqalganini bildirganlarning eng yuqori ulushi esa Toshkent viloyatida 2,21 foizga teng bo'lgan. **Eng past umumiy tanqidiy ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida – 3,96 foiz** miqdorida qayd etilgan.

Baholash tizimining adolatliligi va shaffofligiga hududlar bo'yicha berilgan baholar **14-jadvalda keltirilgan.**

HUDUD	Umuman olganda adolatli, qoidabuzarliklar kam uchraydi	To'liq adolatli va shaffof	Qisman shaffof, ayrim qoidabuzarliklar uchrab turadi	Adolatsiz, korrupsiya holatlari mavjud	Shaffof emas, proteksionizm keng tarqalgan
Andijon viloyati	8,90%	76,13%	10,42%	2,99%	1,56%
Buxoro viloyati	8,03%	75,94%	10,26%	3,87%	1,91%
Farg'ona viloyati	8,87%	75,72%	10,70%	3,11%	1,59%
Jizzax viloyati	9,08%	73,54%	11,88%	3,71%	1,80%
Namangan viloyati	9,06%	74,81%	10,54%	3,78%	1,81%
Navoiy viloyati	8,10%	77,08%	9,41%	3,59%	1,81%
Qashqadaryo viloyati	8,38%	75,06%	10,47%	4,11%	1,98%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,21%	74,64%	10,73%	4,69%	1,73%
Samarqand viloyati	10,12%	70,42%	12,71%	4,77%	1,98%
Sirdaryo viloyati	8,38%	77,96%	9,69%	2,77%	1,19%
Surxondaryo viloyati	6,81%	78,93%	9,49%	3,03%	1,73%
Toshkent shahri	11,05%	69,28%	13,14%	4,47%	2,06%
Toshkent viloyati	9,08%	73,26%	10,86%	4,59%	2,21%
Xorazm viloyati	7,31%	78,14%	9,43%	3,53%	1,59%

14-jadval. Baholash tizimining adolatliligi va shaffofligiga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududlar bo'yicha ijobiy baholar ustun bo'lsa-da, ayrim hududlarda qisman shaffoflik, korrupsiya va proteksionizmga oid javoblar nisbatan ko'proq qayd etilgan. **Ushbu javoblar huquqbuzarliklar tasdiqlanganini anglatmaydi**, biroq baholash mezonlarini oldindan e'lon qilish, natijalarni asoslash va apellyatsiya mexanizmlarining ishonchliligini qo'shimcha o'rganish zarur bo'lgan hududlarni ko'rsatadi.

6.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil baholash tizimining adolatliligi va shaffofligiga nisbatan talabalar ishonchi turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblaganlar ulushi juda yuqori bo'lsa, boshqalarida qisman shaffoflik, korrupsiya yoki proteksionizm mavjudligini bildirgan javoblar nisbatan ko'proq qayd etilgan.

Baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblaganlarning eng yuqori ulushi ISFT institutida – 99,41 foiz miqdorida kuzatilgan. Mazkur OTTda adolatsizlik, korrupsiya va proteksionizmga oid javoblarning jami ulushi 0,34 foizni tashkil etgan.

Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida respondentlarning 98,62 foizi, Buxoro innovatsiyalar universitetida 96,07 foizi va Central Asian Medical Universityda 95,33 foizi baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb baholagan. Tashkent International University of Education xalqaro universitetida mazkur ko'rsatkich 91,09 foizni tashkil qilgan.

Baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblagan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar **15-jadvalda keltirilgan.**

OTT nomi	Umuman olganda adolatli, qoidabuzarliklar kam uchraydi	To'liq adolatli va shaffof	Qisman shaffof, ayrim qoidabuzarliklar uchrab turadi	Adolatsiz, korrupsiya holatlari mavjud	Shaffof emas, proteksionizm keng tarqalgan
ISFT instituti	0,13%	99,41%	0,12%	0,29%	0,05%
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	0,13%	98,62%	0,38%	0,75%	0,13%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	1,09%	96,07%	0,69%	1,71%	0,44%
Central Asian Medical University	1,65%	95,33%	1,65%	0,55%	0,82%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	5,17%	91,09%	1,61%	1,36%	0,76%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	3,89%	88,80%	4,28%	2,26%	0,77%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	8,47%	88,06%	1,25%	1,67%	0,56%
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	4,58%	87,72%	4,45%	2,31%	0,94%
Buxoro xalqaro universiteti	5,08%	87,41%	4,30%	2,27%	0,94%
«Ma'mun» universiteti	4,58%	87,35%	4,64%	2,44%	0,99%

15-jadval. Baholash tizimini to'liq adolatli va shaffof deb hisoblagan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Baholash tizimiga oid tanqidiy javoblarning **eng yuqori umumiy ulushi Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filialida qayd etilgan**. Unda adolatsizlik va korrupsiya holatlari mavjudligini bildirganlar 5,71 foizni, shaffoflik yetishmasligi va proteksionizm keng tarqalganini qayd etganlar 8,57 foizni tashkil etgan. Ushbu ikki javobning jami ulushi 14,28 foizga teng.

Mazkur tanqidiy javoblarning jami ulushi Toshkent davlat texnika universitetida 11,18 foizni, Toshkent davlat transport universitetida 10,69 foizni, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 9,91 foizni va Diplomat universitetida 9,86 foizni tashkil qilgan.

Qisman shaffoflik va ayrim qoidabuzarliklar mavjudligini bildirganlarning eng yuqori ulushi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida 25,15 foizga teng bo'lgan. Baholash tizimiga oid tanqidiy javoblar nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar **16-jadvalda keltirilgan**.

OTT nomi	Umuman olganda adolatli, qoidabuzarliklar kam uchraydi	To'liq adolatli va shaffof	Qisman shaffof, ayrim qoidabuzarliklar uchrab turadi	Adolatsiz, korrupsiya holatlari mavjud	Shaffof emas, proteksionizm keng tarqalgan
Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	14,29%	51,43%	20,00%	5,71%	8,57%
Puchon universiteti	17,74%	63,87%	11,94%	2,26%	4,19%
Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	8,74%	71,84%	11,65%	3,88%	3,88%
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	17,37%	49,90%	25,15%	3,73%	3,86%
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	12,42%	58,87%	18,80%	6,26%	3,65%
Renessans universiteti	10,03%	66,92%	14,28%	5,35%	3,41%
Diplomat universiteti	12,04%	63,21%	14,88%	6,52%	3,34%
University of management and future technologies	10,07%	69,47%	12,06%	5,09%	3,32%
Toshkent davlat transport universiteti	9,96%	66,04%	13,31%	7,38%	3,31%
Toshkent davlat texnika universiteti	11,58%	63,64%	13,59%	7,88%	3,30%

16-jadval. Baholash tizimiga oid tanqidiy javoblar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi natijalar baholash mezonlarini tushuntirish, natijalarni asoslash va apellyatsiya jarayonlarining ochiqligini ta'minlash darajasi bir xil qabul qilinmayotganini ko'rsatadi. **Tanqidiy javoblar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlarda** baholash tartiblari, apellyatsiya amaliyoti

va talabalarining mazkur mexanizmlardan xabardorligini alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

VII. «HEMIS» AXBOROT TIZIMINING QULAYLIGI VA FUNKSIONAL IMKONİYATLARI

7.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

«HEMIS» axborot tizimining qulayligi, texnik barqarorligi va funksional imkoniyatlari talabalarning ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar va elektron xizmatlardan foydalanish tajribasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. So'rovnoma natijalari barcha mulkchilik shaklidagi OTTlarda tizim faoliyatiga ijobiy baholar ustunlik qilishini, biroq texnik nosozliklar va foydalanishdagi qiyinchiliklar bo'yicha muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

«HEMIS» axborot tizimini qulay va funksional deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi nodavlat OTTlarda – 75,60 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich davlat OTTlarida 67,23 foizni, xorijiy OTTlar va ularning filiallarida esa 62,84 foizni tashkil qilgan.

«Qulay va funksional» hamda «qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi» javoblarining jami ulushi nodavlat OTTlarda 87,37 foizni, davlat OTTlarida 82,85 foizni va xorijiy OTTlar hamda ularning filiallarida 78,83 foizni tashkil etgan.

Tizimdan foydalanishdagi noqulayliklarni ifodalovchi uchta javobning umumiy ulushi **xorijiy OTTlar va ularning filiallarida 21,17 foiz bilan eng yuqori** bo'lgan. Jumladan, ushbu toifadagi respondentlarning 11,05 foizi tizimning funksional imkoniyatlari cheklangani va nosozliklar ko'pligini, 5,43 foizi esa tez-tez yuzaga keladigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjudligini bildirgan.

Davlat OTTlarida tizimni noqulay, ammo takomillashib borayotgan deb baholaganlar ulushi 7,29 foizni tashkil etgan. Nodavlat OTTlarda noqulaylik va texnik muammolarga oid javoblarning umumiy ulushi 12,63 foiz bilan nisbatan past darajada qayd etilgan.

«HEMIS» axborot tizimining qulayligi va funksional imkoniyatlariga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar **17-jadvalda keltirilgan.**

Mulkchilik shakli	Noqulay, funksional imkoniyatlari cheklangan, nosozliklar ko'p	Qulay va funksional	Qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi	Juda noqulay, tez-tez uchraydigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjud	Noqulay, ammo takomillashib bormoqda, nosozliklar uchrab turadi
Davlat OTTlari	7,14%	67,23%	15,62%	2,72%	7,29%
Nodavlat OTTlari	5,29%	75,60%	11,77%	2,19%	5,15%
Xorijiy OTTlari	11,05%	62,84%	15,99%	5,43%	4,69%

17-jadval. «HEMIS» axborot tizimining qulayligi va funksional imkoniyatlariga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar «HEMIS» axborot tizimi aksariyat respondentlar tomonidan ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Biroq **qulaylik haqidagi baho tizimning texnik ishlash tezligi, uzluksizligi va ma'lumotlar sifatini to'liq ifodalamaydi**. Shu sababli so'rovnoma natijalarini tizimdagi uzilishlar chastotasi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati, server yuklamasi va foydalanuvchilarni texnik qo'llab-quvvatlash ma'lumotlari bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

7.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil «HEMIS» axborot tizimining qulayligi va funksional imkoniyatlari aksariyat hududlarda ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Biroq tizimning texnik barqarorligi, nosozliklar chastotasi va funksional cheklovlarga oid javoblar bo'yicha muayyan farqlar kuzatilgan.

Tizimni qulay va funksional deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 76,93 foiz miqdorida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkich Xorazm viloyatida 74,51 foizni, Sirdaryo viloyatida 74,08 foizni, Qashqadaryo viloyatida 74,04 foizni va Qoraqalpog'iston Respublikasida 73,87 foizni tashkil qilgan.

«Qulay va funksional» hamda «qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi» javoblarining jami ulushi Sirdaryo viloyatida 89,07 foizni, Surxondaryo viloyatida 89,03 foizni va Xorazm

viloyatida 87,81 foizni tashkil etgan. Bu mazkur hududlarda tizimdan foydalanish tajribasi asosan ijobiy baholanganini ko'rsatadi.

Tizimni noqulay deb baholagan uchta javobning umumiy ulushi **Toshkent shahrida 20,17 foiz bilan eng yuqori** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich Toshkent viloyatida 18,27 foizni, Samarqand viloyatida 17,13 foizni va Jizzax viloyatida 16,70 foizni tashkil etgan.

Funksional imkoniyatlar cheklangani va nosozliklar ko'pligini bildirganlar ulushi Toshkent shahrida 8,45 foizni, Toshkent viloyatida 8,08 foizni va Samarqand viloyatida 7,36 foizni tashkil qilgan. **Tez-tez yuzaga keladigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar haqidagi javoblarning eng yuqori ulushi ham Toshkent shahrida – 3,72 foiz** miqdorida qayd etilgan.

«HEMIS» axborot tizimining qulayligi va funksional imkoniyatlariga hududlar bo'yicha berilgan baholar **18-jadvalda keltirilgan.**

Hudud	Noqulay, funksional imkoniyatlari cheklangan, nosozliklar ko'p	Qulay va funksional	Qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi	Juda noqulay, tez-tez uchraydigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjud	Noqulay, ammo takomillashib bormoqda, nosozliklar uchrab turadi
Andijon viloyati	5,24%	72,19%	14,67%	1,91%	5,99%
Buxoro viloyati	6,43%	70,56%	14,37%	2,54%	6,10%
Farg'ona viloyati	5,76%	68,35%	17,04%	2,12%	6,73%
Jizzax viloyati	6,94%	66,26%	17,05%	2,27%	7,49%
Namangan viloyati	5,36%	71,40%	14,92%	2,05%	6,27%
Navoiy viloyati	6,58%	69,74%	15,35%	2,07%	6,25%
Qashqadaryo viloyati	4,98%	74,04%	13,45%	2,04%	5,49%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,85%	73,87%	12,14%	2,01%	6,13%
Samarqand viloyati	7,36%	66,20%	16,67%	2,65%	7,12%
Sirdaryo viloyati	4,74%	74,08%	14,99%	1,20%	5,00%
Surxondaryo viloyati	4,59%	76,93%	12,10%	1,55%	4,83%
Toshkent shahri	8,45%	65,19%	14,65%	3,72%	8,00%
Toshkent viloyati	8,08%	68,04%	13,69%	3,20%	6,99%
Xorazm viloyati	4,71%	74,51%	13,30%	1,72%	5,75%

18-jadval. «HEMIS» axborot tizimining qulayligi va funksional imkoniyatlariga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Aniqlangan hududiy farqlar tizimdan foydalanish tajribasi va texnik muammolar respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma natijalari nosozliklarning aniq texnik sabablarini belgilash imkonini bermaydi. Shu bois tanqidiy javoblar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda **server yuklamasi, internet aloqasi sifati, foydalanuvchilar soni, murojaatlar mazmuni va texnik nosozliklarni bartaraf etish muddatlarini** qo'shimcha o'rganish maqsadga muvofiq.

7.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil «HEMIS» axborot tizimining qulayligi, funksional imkoniyatlari va texnik barqarorligiga berilgan baholar sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda tizimni qulay va funksional deb baholagan javoblar ustun bo'lsa, boshqalarida texnik nosozliklar va funksional cheklovlarga oid fikrlar nisbatan ko'p qayd etilgan.

Tizimni qulay va funksional deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi ISFT institutida - 99,48 foiz miqdorida kuzatilgan. Mazkur OTTda noqulaylik va texnik muammolarga oid uchta javobning umumiy ulushi 0,40 foizni tashkil etgan.

Buxoro innovatsiyalar universitetida respondentlarning 95,76 foizi, Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida 90,10 foizi va G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida 85,42 foizi tizimni qulay va funksional deb baholagan. Oriental universitetida ushbu ko'rsatkich 84,79 foizni, Toshkent amaliy fanlar universitetida 83,59 foizni tashkil qilgan.

«HEMIS» axborot tizimini qulay va funksional deb baholagan javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar **19-jadvalda keltirilgan.**

OTT nomi	Noqulay, funksional imkoniyatlari cheklangan, nosozliklar ko'p	Qulay va funksional	Qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi	Juda noqulay, tez-tez uchraydigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjud	Noqulay, ammo takomillashib bormoqda, nosozliklar uchrab turadi
ISFT instituti	0,13%	99,48%	0,12%	0,10%	0,17%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	0,87%	95,76%	1,84%	0,41%	1,12%
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	1,13%	90,10%	7,89%	0,50%	0,38%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	2,64%	85,42%	7,64%	4,31%	0,00%
Oriental universiteti	3,13%	84,79%	6,50%	2,19%	3,39%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	2,75%	83,59%	9,49%	1,07%	3,10%
University Of Innovation Technologies	4,02%	82,30%	9,10%	1,15%	3,43%
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	4,44%	81,86%	8,39%	1,31%	4,01%
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	5,82%	81,53%	6,96%	1,48%	4,22%
«Ma'mun» universiteti	2,91%	80,90%	11,35%	1,20%	3,64%

19-jadval. «HEMIS» axborot tizimini qulay va funksional deb baholagan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda tizimning noqulayligi va texnik nosozliklariga oid javoblar nisbatan yuqori ulushni tashkil etgan. Noqulaylikni ifodalovchi uchta javobning umumiy ulushi I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filialida **48,09 foizni**, «Yangi O'zbekiston» universitetida 45,41 foizni, «MIFI» Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filialida 39,36 foizni va Toshkent shahridagi Puchon universitetida 34,84 foizni tashkil etgan.

Tez-tez yuzaga keladigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjudligini bildirgan respondentlar ulushi I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filialida 13,76 foizni, «MIFI»

filialida 12,77 foizni va «Yangi O'zbekiston» universitetida 11,29 foizni tashkil etgan.

Tizimning noqulayligi va texnik muammolariga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 20-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Noqulay, funksional imkoniyatlari cheklangan, nosozliklar ko'p	Qulay va funksional	Qulay, funksional imkoniyatlari kengayib bormoqda, nosozliklar kam uchraydi	Juda noqulay, tez-tez uchraydigan va bartaraf etilmaydigan nosozliklar mavjud	Noqulay, ammo takomillashib bormoqda, nosozliklar uchrab turadi
I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filiali	27,38%	30,64%	21,28%	13,76%	6,95%
Milliy tadqiqot yadro universiteti MIFIning Toshkent filiali	17,02%	39,36%	21,28%	12,77%	9,57%
Yangi O'zbekiston universiteti	12,86%	35,96%	18,64%	11,29%	21,26%
Puchon universiteti	25,16%	30,65%	34,52%	8,39%	1,29%
O'zbekiston davlat konservatoriyasi	14,69%	50,92%	16,43%	7,29%	10,66%
Toshkent davlat tibbiyot universiteti	13,45%	53,49%	15,49%	7,07%	10,50%
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	12,25%	45,30%	26,50%	6,70%	9,26%
Milliy tadqiqot texnologik universiteti MISiS filiali	10,72%	63,55%	15,01%	6,63%	4,09%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	7,49%	62,40%	19,75%	6,54%	3,81%
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	16,37%	47,79%	19,67%	5,87%	10,30%

20-jadval. «HEMIS» axborot tizimining noqulayligi va texnik muammolariga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar o'rtasidagi farqlar tizimdan foydalanish tajribasi, texnik infratuzilma va foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash holati bir xil baholanmaganini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma natijalari aniqlangan muammolarning texnik sabablarini bevosita belgilab bermaydi. Shu sababli muammoli javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlarda **server yuklamasi, internet aloqasi, tizimdan foydalanuvchilar soni, texnik murojaatlar mazmuni va ularni bartaraf etish muddatlarini** alohida o'rganish zarur.

VIII. O'QUV AUDITORIYALARI VA LABORATORIYALAR HOLATINING BAHOLANISHI

8.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

So'rovnoma natijalari respondentlar o'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatini barcha mulkchilik shaklidagi OTTlarda asosan ijobiy baholaganini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi, jihozlar bilan ta'minlanganlik va ta'mirlash ehtiyojiga oid javoblarda muayyan farqlar kuzatilgan.

Auditoriya va laboratoriyalarni **a'lo holatda hamda zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi nodavlat OTTlarda qayd etilib, **77,63 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich xorijiy OTTlarda 71,05 foizga, davlat OTTlarida esa 58,33 foizga teng bo'lgan.

«A'lo holatda, zamonaviy infratuzilmaga ega» va «yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli» javoblarining umumiy ulushi nodavlat OTTlarda **89,35 foizni**, xorijiy OTTlarda 88,27 foizni va davlat OTTlarida 81,48 foizni tashkil etgan. Bu nodavlat va xorijiy OTTlarda o'quv infratuzilmasi respondentlar tomonidan nisbatan yuqori baholanganini ko'rsatadi.

O'quv infratuzilmasida muayyan kamchiliklar mavjudligini ifodalovchi uchta javobning umumiy ulushi davlat OTTlarida **18,52 foiz** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich xorijiy OTTlarda 11,73 foizni, nodavlat OTTlarda esa 10,64 foizni tashkil etgan.

Davlat OTTlarida respondentlarning 7,52 foizi jihozlarning bir qismi mavjud emasligini, 6,69 foizi auditoriya va laboratoriyalar ta'mirtalab hamda jihozlanganlik darajasi juda past ekanini, 4,31 foizi esa ko'plab jihozlar yetishmasligini bildirgan.

O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar 21-jadvalda keltirilgan.

Mulkchilik shakli	Qoniqarli holatda, jihozlarning bir qismi mavjud emas	Ta'mirtalab, jihozlanganlik darajasi juda past	Qisman ta'mirlangan, ko'plab jihozlar etishmaydi	A'lo holatda, zamonaviy infratuzilma ga ega	Yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli
Davlat OTTlari	7,52%	6,69%	4,31%	58,33%	23,15%
Nodavlat OTTlari	4,38%	3,86%	2,40%	77,63%	11,72%
Xorijiy OTTlari	5,06%	3,73%	2,94%	71,05%	17,22%

21-jadval. O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar nodavlat va xorijiy OTTlarda o'quv infratuzilmasiga berilgan ijobiy baholar ulushi davlat OTTlariga nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma natijalari auditoriyalar va laboratoriyalarning haqiqiy texnik holatini to'liq ifodalamaydi. Shu sababli ushbu baholarni **jihozlarni inventarizatsiya qilish, laboratoriya uskunalarining ishlash holati, auditoriya sig'imi va ta'mirlash ehtiyojiga oid rasmiy ma'lumotlar** bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

8.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil respondentlar o'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatini barcha hududlarda asosan ijobiy baholaganini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi, jihozlar bilan ta'minlanganlik va ta'mirlash ehtiyoji bo'yicha hududlar o'rtasida muayyan farqlar kuzatilgan.

Auditoriya va laboratoriyalarni **a'lo holatda hamda zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida qayd etilib, **72,77 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 70,06 foiz, Qashqadaryo viloyatida 66,22 foiz, Buxoro viloyatida 65,97 foiz va Andijon viloyatida 65,78 foizga teng bo'lgan.

«A'lo holatda, zamonaviy infratuzilmaga ega» va «yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli» javoblarining umumiy ulushi **Surxondaryo viloyatida 89,00 foizni**, Xorazm viloyatida 87,49 foizni va Andijon viloyatida 86,39 foizni tashkil etgan. Mazkur ijobiy javoblarning nisbatan past umumiy ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida – 79,86 foiz miqdorida qayd etilgan.

Jihozlarning bir qismi mavjud emasligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida 8,38 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 7,65 foiz va Namangan viloyatida 7,60 foizga teng bo'lgan.

Auditoriya va laboratoriyalar ta'mirtalab hamda jihozlanganlik darajasi juda past ekanini bildirganlar ulushi **Qoraqalpog'iston Respublikasida 7,64 foiz**, Namangan viloyatida 7,00 foiz, Navoiy viloyatida 6,83 foiz va Sirdaryo viloyatida 6,75 foizni tashkil etgan.

O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga hududlar bo'yicha berilgan baholar 22-jadvalda keltirilgan.

HUDUD	Qoniqarli holatda, jihozlarning bir qismi mavjud emas	Ta'mirtalab, jihozlanganlik darajasi juda past	Qisman ta'mirlangan, ko'plab jihozlar etishmaydi	A'lo holatda, zamonaviy infratuzilmaga ega	Yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli
Andijon viloyati	5,96%	4,77%	2,89%	65,78%	20,61%
Buxoro viloyati	6,47%	5,69%	3,74%	65,97%	18,12%
Farg'ona viloyati	6,06%	5,00%	3,27%	64,57%	21,10%
Jizzax viloyati	6,96%	6,63%	3,48%	59,73%	23,20%
Namangan viloyati	7,60%	7,00%	4,21%	59,50%	21,70%
Navoiy viloyati	7,00%	6,83%	3,75%	60,49%	21,93%
Qashqadaryo viloyati	6,71%	5,61%	3,53%	66,22%	17,93%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,38%	7,64%	4,12%	59,82%	20,04%
Samarqand viloyati	7,09%	6,63%	4,30%	60,85%	21,13%
Sirdaryo viloyati	7,65%	6,75%	4,06%	57,02%	24,51%
Surxondaryo viloyati	4,67%	3,88%	2,46%	72,77%	16,23%
Toshkent shahri	6,98%	6,23%	4,37%	62,05%	20,37%
Toshkent viloyati	6,73%	6,01%	3,82%	63,19%	20,25%
Xorazm viloyati	5,10%	4,45%	2,96%	70,06%	17,43%

22-jadval. O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Aniqlangan hududiy farqlar o'quv infratuzilmasi va jihozlar bilan ta'minlanganlik holati respondentlar tomonidan bir xil baholanmaganini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma natijalari infratuzilmaning haqiqiy texnik holati

va mavjud jihozlarning ishlash darajasini to'liq belgilab bermaydi. Shu sababli kamchiliklarga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda **auditoriya va laboratoriyalarning texnik holati, jihozlarning mavjudligi va ishga yaroqliligi hamda ta'mirlash ehtiyojini** qo'shimcha o'rganish maqsadga muvofiq.

8.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil o'quv auditoriyalari va laboratoriyalarning holati, jihozlanganlik darajasi hamda infratuzilmaning zamonaviyligiga berilgan baholar sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda ijobiy javoblar deyarli mutlaq ustunlik qilsa, boshqalarida ta'mirlash ehtiyoji va jihozlar yetishmasligiga oid fikrlar nisbatan ko'p qayd etilgan.

Auditoriya va laboratoriyalarni **a'lo holatda hamda zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi ISFT institutida kuzatilib, **99,28 foizni** tashkil etgan. Mazkur OTTda infratuzilmadagi kamchiliklarni ifodalovchi uchta javobning umumiy ulushi 0,49 foizga teng bo'lgan.

Ushbu ko'rsatkich Buxoro innovatsiyalar universitetida 96,17 foizni, Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida 94,99 foizni hamda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida 90,83 foizni tashkil etgan. Buxoro xalqaro universitetida respondentlarning 89,52 foizi, Termiz iqtisodiyot va servis universitetida 89,17 foizi, Toshkent amaliy fanlar universitetida esa 89,06 foizi o'quv infratuzilmasini a'lo baholagan.

O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga eng yuqori ijobiy baho berilgan OTTlar 23-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qoniqarli holatda, jihozlarning bir qismi mavjud emas	Ta'mirtalab, jihozlanganlik darajasi juda past	Qisman ta'mirlangan, ko'plab jihozlar etishmaydi	A'lo holatda, zamonaviy infratuzilmaga ega	Yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli
ISFT instituti	0,34%	0,12%	0,03%	99,28%	0,24%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	0,84%	0,97%	0,37%	96,17%	1,65%
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	2,88%	0,50%	1,13%	94,99%	0,50%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	1,81%	0,42%	0,28%	90,83%	6,67%
Buxoro xalqaro universiteti	1,69%	2,62%	1,00%	89,52%	5,16%
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	1,61%	2,54%	1,17%	89,17%	5,51%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	2,09%	1,33%	0,81%	89,06%	6,70%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	1,27%	0,85%	0,68%	88,97%	8,23%
Nordik xalqaro universiteti	1,90%	1,78%	1,06%	88,40%	6,86%
Urganch RANCH texnologiya universiteti	2,27%	3,19%	1,67%	86,63%	6,24%

23-jadval. O'quv auditoriyalari va laboratoriyalarini a'lo holatda hamda zamonaviy infratuzilmaga ega deb baholagan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda auditoriya va laboratoriyalarning ta'mirtalabligi hamda jihozlar yetishmasligiga oid javoblar nisbatan yuqori ulushni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida qayd etilgan: respondentlarning **22,16 foizi** auditoriya va laboratoriyalar ta'mirtalab hamda jihozlanganlik darajasi juda past ekanini bildirgan. Shuningdek, 17,61 foiz respondent ko'plab jihozlar yetishmasligini, 15,57 foiz esa zarur jihozlarning bir qismi mavjud emasligini qayd etgan.

Auditoriya va laboratoriyalarning ta'mirtalabligi hamda jihozlanganlik darajasi juda past ekanini bildirgan respondentlar ulushi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida 15,45 foizni, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va

agrotexnologiyalar institutida 14,13 foizni, Toshkent davlat texnika universitetida 13,23 foizni va Nukus davlat texnika universitetida 12,94 foizni tashkil etgan.

O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar holatiga oid kamchiliklarni qayd etgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 24-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qoniqarli holatda, jihozlarning bir qismi mavjud emas	Ta'mirtalab, jihozlanganlik darajasi juda past	Qisman ta'mirlangan, ko'plab jihozlar etishmaydi	A'lo holatda, zamonaviy infratuzilmaga ega	Yaxshi holatda, umuman olganda, jihozlar etarli
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	15,57%	22,16%	17,61%	20,71%	23,94%
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali	9,97%	15,45%	9,53%	41,99%	23,05%
Qoraqalpoq qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	9,85%	14,13%	6,18%	52,03%	17,81%
Toshkent davlat texnika universiteti	8,91%	13,23%	8,60%	44,87%	24,39%
Nukus davlat texnika universiteti	11,04%	12,94%	6,64%	47,42%	21,96%
Toshkent kimyo-texnologiya instituti	9,71%	11,15%	7,66%	40,72%	30,76%
Namangan davlat texnika universiteti	10,00%	11,00%	6,23%	49,45%	23,33%
Qarshi davlat texnika universiteti	9,43%	10,96%	7,07%	49,22%	23,33%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	11,25%	10,63%	7,10%	45,04%	25,98%
Navoiy davlat universiteti	10,00%	10,62%	5,84%	46,27%	27,27%

24-jadval. O'quv auditoriyalari va laboratoriyalarining ta'mirtalabligi hamda jihozlar bilan ta'minlanganligiga oid kamchiliklar qayd etilgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar o'rtasidagi farqlar o'quv infratuzilmasi holati respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq ushbu natijalar auditoriya va laboratoriyalarning haqiqiy texnik holati yoki ta'mirlash ehtiyojini to'liq tasdiqlamaydi. Shu bois kamchiliklarga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlarda **binolarning texnik holati, laboratoriya uskunalarining mavjudligi va ishga yaroqliligi, auditoriya sig'imi hamda ta'mirlash ehtiyojini** inventarizatsiya va texnik ko'rik natijalari asosida qo'shimcha baholash zarur.

IX. TALABALAR TURAR JOYLARIDAGI YASHASH SHAROITLARINING BAHOLANISHI

9.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

So'rovnoma natijalari talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga berilgan baholar OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha muayyan darajada farqlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning katta qismi talabalar turar joyida yashamasligini bildirgani natijalarni talqin qilishda alohida hisobga olinishi zarur.

Yashash sharoitlarini **a'lo va zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi nodavlat OTTlarda qayd etilib, **23,97 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich davlat OTTlarida 20,64 foizga, xorijiy OTTlarda esa 20,39 foizga teng bo'lgan.

«Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma» va «sharoitlar yaxshi, yashashga qulay» javoblarining umumiy ulushi davlat OTTlarida 32,98 foizni, xorijiy OTTlarda 32,17 foizni va nodavlat OTTlarda 30,35 foizni tashkil etgan. Mazkur ulushlar barcha respondentlarga nisbatan hisoblangani sababli talabalar turar joyida amalda yashaydigan talabalar bahosini alohida ifodalamaydi.

Qisman ta'mirlash ishlari zarurligi va yashash sharoitlari qiyinligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **davlat OTTlarida – 11,88 foiz** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 8,69 foizni, xorijiy OTTlarda esa 6,56 foizni tashkil etgan. Talabalar turar joylari ta'mirtalab va zarur sharoitlar mavjud emasligini bildirganlar ulushi davlat OTTlarida 2,90 foiz, xorijiy OTTlarda 2,62 foiz va nodavlat OTTlarda 2,38 foizga teng bo'lgan.

Talabalar turar joyida yashamaydigan respondentlar ulushi nodavlat OTTlarda **53,52 foizni**, xorijiy OTTlarda 51,82 foizni va davlat OTTlarida 43,88 foizni tashkil etgan. Bu talabalar turar joylarining holatiga berilgan baholarni mulkchilik shakllari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash imkoniyatini muayyan darajada cheklaydi.

Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar 25-jadvalda keltirilgan.

Mulkchilik shakli	Qoniqarli, asosiy sharoitlar mavjud	Talabalar turar joyida yashamaymagan	Ta'mirtalab, zarur sharoitlar mavjud emas	Qisman ta'mirlangan, yashash sharoitlari qiyin	Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma	Sharoitlar yaxshi, yashashga qulay
Davlat OTTlari	8,37%	43,88%	2,90%	11,88%	20,64%	12,34%
Nodavlat OTTlari	5,06%	53,52%	2,38%	8,69%	23,97%	6,38%
Xorijiy OTTlari	6,82%	51,82%	2,62%	6,56%	20,39%	11,78%

25-jadval. Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar davlat OTTlarida talabalar turar joylarini qisman ta'mirlash zarurligi va yashashdagi qiyinchiliklarga oid javoblar nisbatan ko'p qayd etilganini ko'rsatadi. Biroq yashash sharoitlarini aniq baholash uchun keyingi tahlillarda **faqat talabalar turar joyida amalda istiqomat qiladigan respondentlar javoblarini alohida hisoblash**, shuningdek, xona sig'imi, sanitariya holati, xavfsizlik, internet va maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini ham o'rganish maqsadga muvofiq.

9.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga berilgan baholar turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Bunda hududlar bo'yicha talabalar turar joyida yashamaydigan respondentlar ulushidagi farqlar natijalarni qiyoslashda inobatga olinishi zarur.

Yashash sharoitlarini **a'lo va zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi Xorazm viloyatida qayd etilib, **27,70 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 27,18 foiz, Sirdaryo viloyatida 26,27 foiz, Jizzax viloyatida 24,87 foiz va Buxoro viloyatida 23,97 foizga teng bo'lgan.

«Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma mavjud» va «sharoitlar yaxshi, yashashga qulay» javoblarining umumiy ulushi **Sirdaryo viloyatida 40,65 foizni**, Jizzax viloyatida 37,59 foizni, Andijon viloyatida 37,04 foizni va Xorazm viloyatida 36,78 foizni tashkil etgan. Biroq ushbu ko'rsatkichlar barcha

respondentlarga nisbatan hisoblangani sababli talabalar turar joyida amalda istiqomat qiluvchilar bahosini to'liq ifodalamaydi.

Qisman ta'mirlash zarurligi va yashash sharoitlarida qiyinchiliklar mavjudligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Qoraqalpog'iston Respublikasida – 14,30 foiz** bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich Toshkent viloyatida 12,28 foizni, Toshkent shahrida 11,97 foizni, Buxoro viloyatida 11,44 foizni va Samarqand viloyatida 10,99 foizni tashkil etgan.

Talabalar turar joylari ta'mirtalab va zarur sharoitlar mavjud emasligini bildirganlar ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida 3,45 foiz, Toshkent viloyatida 3,22 foiz, Toshkent shahrida 3,12 foiz va Samarqand viloyatida 2,96 foizga teng bo'lgan.

Talabalar turar joyida yashamaydigan respondentlarning eng yuqori ulushi **Navoiy viloyatida 51,14 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Namangan viloyatida 49,91 foiz va Toshkent shahrida 49,52 foiz bo'lgan. Eng past ulush Sirdaryo viloyatida – 39,22 foiz miqdorida qayd etilgan.

Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga hududlar bo'yicha berilgan baholar 26-jadvalda keltirilgan.

HUDUD	Qoniqarli, asosiy sharoitlar mavjud	Talabalar turar joyida yashamayman	Ta'mirtalab, zarur sharoitlar mavjud emas	Qisman ta'mirlangan, yashash sharoitlari qiyin	Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma	Sharoitlar yaxshi, yashashga qulay
Andijon viloyati	7,86%	44,32%	2,13%	8,66%	23,15%	13,89%
Buxoro viloyati	6,96%	45,59%	2,44%	11,44%	23,97%	9,61%
Farg'ona viloyati	8,00%	42,57%	2,31%	10,42%	23,53%	13,17%
Jizzax viloyati	7,78%	41,55%	2,47%	10,60%	24,87%	12,72%
Namangan viloyati	7,60%	49,91%	2,68%	10,40%	19,68%	9,73%
Navoiy viloyati	7,48%	51,14%	2,73%	9,75%	19,90%	9,00%
Qashqadaryo viloyati	7,20%	47,54%	2,46%	8,60%	23,88%	10,32%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,43%	43,97%	3,45%	14,30%	20,71%	9,14%
Samarqand viloyati	7,92%	44,79%	2,96%	10,99%	21,07%	12,27%
Sirdaryo viloyati	8,18%	39,22%	2,30%	9,65%	26,27%	14,38%
Surxondaryo viloyati	5,36%	46,74%	2,22%	8,97%	27,18%	9,52%
Toshkent shahri	7,77%	49,52%	3,12%	11,97%	17,23%	10,39%
Toshkent viloyati	7,55%	47,42%	3,22%	12,28%	19,92%	9,60%
Xorazm viloyati	6,19%	44,28%	2,26%	10,49%	27,70%	9,08%

26-jadval. Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Aniqlangan hududiy farqlar talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlari respondentlar tomonidan bir xil baholanmaganini ko'rsatadi. Biroq mazkur natijalarni talabalar turar joyida yashamaydigan respondentlar ulushi bilan birgalikda talqin qilish lozim. Yashash sharoitlarini yanada aniq baholash uchun **amalda istiqomat qiluvchi talabalar javoblarini alohida hisoblash**, shuningdek, xona sig'imi, sanitariya holati, xavfsizlik, internet, isitish va maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganlikni o'rganish zarur.

9.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil talabalar turar joylarining sifati, maishiy qulayliklar va yashash infratuzilmasining zamonaviyligiga berilgan baholar sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Biroq ayrim OTTlarda talabalar turar joyida yashamaydigan respondentlar ulushi yuqori bo'lgani qiyosiy natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi.

Yashash sharoitlarini **a'lo va zamonaviy infratuzilmaga ega** deb baholagan respondentlarning eng yuqori ulushi Adju universitetida qayd etilib, **55,76 foizni** tashkil etgan. Mazkur OTTda sharoitlarni yaxshi va yashashga qulay deb baholaganlar bilan birgalikda ijobiy javoblarning umumiy ulushi 71,47 foizga teng bo'lgan.

Ushbu ko'rsatkich Buxoro innovatsiyalar universitetida 51,81 foizni, «Ma'mun» universitetida 41,67 foizni, SAMBHRAM universitetida 38,76 foizni va Buxoro xalqaro universitetida 38,19 foizni tashkil etgan. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida respondentlarning 36,98 foizi, «Tashkent International University of Education» xalqaro universitetida esa 36,13 foizi yashash sharoitlarini a'lo baholagan.

Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlariga eng yuqori ijobiy baho berilgan OTTlar 27-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qoniqarli, asosiy sharoitlar mavjud	Talabalar turar joyida yashamaym an	Ta'mirtalab, zarur sharoitlar mavjud emas	Qisman ta'mirlangan, yashash sharoitlari qiyin	Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma	Sharoitlar yaxshi, yashashga qulay
Toshkent shahridagi Adju universiteti	2,96%	21,88%	1,07%	2,63%	55,76%	15,71%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	1,59%	40,59%	0,69%	3,30%	51,81%	2,03%
«Ma'mun» universiteti	3,91%	41,17%	1,57%	7,24%	41,67%	4,44%
SAMBHRAM universiteti	2,81%	38,15%	2,01%	10,24%	38,76%	8,03%
Buxoro xalqaro universiteti	4,48%	46,53%	1,16%	5,09%	38,19%	4,55%
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	8,16%	31,10%	2,03%	7,58%	36,98%	14,16%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	1,78%	56,40%	0,68%	2,37%	36,13%	2,63%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	2,03%	53,10%	1,21%	3,98%	35,89%	3,79%
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	5,40%	31,12%	2,51%	12,86%	35,82%	12,30%
Qarshi xalqaro universiteti	7,19%	36,14%	3,18%	9,00%	35,59%	8,90%

27-jadval. Talabalar turar joylaridagi yashash sharoitlarini a'lo va zamonaviy infratuzilmaga ega deb baholagan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda talabalar turar joylarining ta'mirtalabligi va yashash sharoitlaridagi qiyinchiliklarga oid javoblar nisbatan yuqori ulushni tashkil etgan. Ta'mirtalablik va zarur sharoitlar mavjud emasligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida – 6,85 foiz** bo'lgan.

Mazkur ko'rsatkich Toshkent davlat texnika universitetida 6,19 foizni, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filialida 6,15 foizni, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida 5,31 foizni va Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 5,30 foizni tashkil etgan.

Qisman ta'mirlash zarurligi va yashash sharoitlari qiyinligini bildirgan respondentlar ulushi **Toshkent davlat texnika universitetida 20,53 foizni**,

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 19,37 foizni, Toshkent arxitektura-qurilish universitetida 17,91 foizni va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialida 17,77 foizni tashkil etgan.

Talabalar turar joylarining ta'mirtalabligi va yashash sharoitlaridagi qiyinchiliklarga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 28-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qoniqarli, asosiy sharoitlar mavjud	Talabalar turar joyida yashamaym an	Ta'mirtalab, zarur sharoitlar mavjud emas	Qisman ta'mirlangan, yashash sharoitlari qiyin	Sharoitlar a'lo, zamonaviy infratuzilma	Sharoitlar yaxshi, yashashga qulay
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	11,13%	58,33%	6,85%	9,61%	4,74%	9,35%
Toshkent davlat texnika universiteti	12,80%	34,80%	6,19%	20,53%	11,59%	14,09%
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	6,30%	55,08%	6,15%	12,31%	16,01%	4,15%
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali	6,00%	62,90%	5,31%	11,06%	8,81%	5,93%
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	8,60%	44,99%	5,30%	11,17%	6,88%	23,07%
Qoraqalpoq qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	10,13%	46,69%	5,29%	19,37%	10,91%	7,62%
Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik malakalar instituti	2,11%	70,60%	5,13%	7,88%	10,62%	3,66%
Diplomat universiteti	5,76%	62,01%	5,10%	14,64%	8,72%	3,78%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	8,92%	45,25%	5,03%	17,91%	12,71%	10,16%
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	6,72%	52,62%	4,90%	17,77%	14,24%	3,76%

28-jadval. Talabalar turar joylarining ta'mirtalabligi va yashash sharoitlaridagi qiyinchiliklarga oid javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi natijalar talabalar turar joylaridagi sharoitlar respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq ayrim OTTlarda talabalar turar joyida yashamaydiganlar ulushi 50 foizdan yuqori

bo'lgani sababli mazkur ko'rsatkichlarni OTTlardagi haqiqiy yashash sharoitlarining to'liq bahosi sifatida qabul qilish mumkin emas. Shu bois **talabalar turar joyida amalda istiqomat qiluvchilar javoblarini alohida tahlil qilish**, natijalarni esa binolarning texnik holati, xona sig'imi, sanitariya va xavfsizlik talablari hamda maishiy xizmatlar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar bilan qiyoslash zarur.

X. O'QUV QO'LLANMALARI VA DARSLIKLAR BILAN TA'MINLANGANLIK DARAJASINING BAHOLANISHI

10.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

So'rovnoma natijalari o'quv qo'llanmalari, darsliklar va boshqa ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi. Barcha toifalarda o'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlanganlikni bildirgan javoblar salmoqli o'rin egallasa-da, ayrim respondentlar materiallar yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etgan.

O'quv adabiyotlari bilan **to'liq ta'minlanganlikni** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi xorijiy OTTlarda qayd etilib, **62,87 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 54,02 foizga, davlat OTTlarida esa 39,10 foizga teng bo'lgan.

O'quv adabiyotlarining tez-tez yoki doimiy ravishda yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan javoblarning umumiy ulushi **davlat OTTlarida 32,10 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 24,66 foizga, xorijiy OTTlarda esa 16,55 foizga teng bo'lgan.

Xususan, adabiyotlar doimiy ravishda yetishmasligi ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotganini davlat OTTlari respondentlarining 22,06 foizi bildirgan. Mazkur javob ulushi nodavlat OTTlarda 18,00 foizni, xorijiy OTTlarda 11,36 foizni tashkil etgan.

Adabiyotlar ba'zan yoki davriy ravishda yetishmasligi, biroq bu holat ta'lim jarayonida jiddiy muammo keltirib chiqarmasligini bildirgan javoblarning umumiy ulushi davlat OTTlarida 28,80 foizni, nodavlat OTTlarda 21,32 foizni va xorijiy OTTlarda 20,58 foizni tashkil etgan.

O'quv qo'llanmalari va darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar 29-jadvalda keltirilgan.

Mulkchilik shakli	Adabiyotlar tez-tez etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir qiladi	Adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan	Ba'zan adabiyotlar etishmaydi, ammo bu ta'lim jarayoniga xalaqit bermaydi	Adabiyotlar davriy ravishda etishmaydi, biroq jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi	Adabiyotlar doimiy ravishda etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi
Davlat OTTlari	10,04%	39,10%	16,97%	11,83%	22,06%
Nodavlat OTTlari	6,66%	54,02%	12,18%	9,14%	18,00%
Xorijiy OTTlari	5,19%	62,87%	12,59%	7,99%	11,36%

29-jadval. O'quv qo'llanmalari va darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasiga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar xorijiy va nodavlat OTTlarda o'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlanganlikka oid ijobiy javoblar ulushi davlat OTTlariga nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma ma'lumotlari qaysi fanlar, ta'lim tillari yoki adabiyot turlari bo'yicha etishmovchilik mavjudligini aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli **kutubxona fondlari, elektron ta'lim resurslari, fanlar bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati va ulardan foydalanish statistikasini** qo'shimcha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

10.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil o'quv qo'llanmalari, darsliklar va boshqa ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Barcha hududlarda ijobiy javoblar salmoqli o'rin egallasa-da, ayrim hududlarda adabiyotlar yetishmasligining ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan respondentlar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan.

O'quv adabiyotlari bilan **to'liq ta'minlanganlikni** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida qayd etilib, **47,18 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich Xorazm viloyatida 46,73 foiz, Qashqadaryo viloyatida 46,29 foiz, Navoiy viloyatida 46,07 foiz va Andijon viloyatida 45,18 foizga teng bo'lgan.

To'liq ta'minlanganlikka oid javoblarning nisbatan past ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida – 39,03 foiz, Jizzax viloyatida 39,75 foiz, Samarqand viloyatida 40,11 foiz va Sirdaryo viloyatida 40,36 foiz miqdorida qayd etilgan.

Adabiyotlarning tez-tez yoki doimiy ravishda yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan javoblarning umumiy ulushi **Qoraqalpog'iston Respublikasida 33,61 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Samarqand viloyatida 31,45 foiz, Toshkent viloyatida 31,20 foiz, Jizzax viloyatida 30,95 foiz va Toshkent shahrida 30,86 foizga teng bo'lgan.

Adabiyotlar doimiy ravishda yetishmasligi ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasida **24,30 foiz** bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich Toshkent viloyatida 22,28 foizni, Buxoro viloyatida 21,59 foizni, Namangan va Samarqand viloyatlarida 21,34 foizni tashkil etgan.

O'quv qo'llanmalari va darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasiga hududlar bo'yicha berilgan baholar 30-jadvalda keltirilgan.

HUDUD	Adabiyotlar tez-tez etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir qiladi	Adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan	Ba'zan adabiyotlar etishmaydi, ammo bu ta'lim jarayoniga xalaqit bermaydi	Adabiyotlar davriy ravishda etishmaydi, biroq jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi	Adabiyotlar doimiy ravishda etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi
Andijon viloyati	8,36%	45,18%	17,21%	10,89%	18,36%
Buxoro viloyati	9,01%	43,72%	14,75%	10,93%	21,59%
Farg'ona viloyati	8,71%	44,06%	16,32%	10,66%	20,25%
Jizzax viloyati	9,64%	39,75%	17,59%	11,70%	21,31%
Namangan viloyati	8,84%	42,02%	16,31%	11,48%	21,34%
Navoiy viloyati	8,46%	46,07%	15,49%	10,73%	19,25%
Qashqadaryo viloyati	8,28%	46,29%	15,93%	10,95%	18,54%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,31%	39,03%	14,85%	12,52%	24,30%
Samarqand viloyati	10,11%	40,11%	16,74%	11,70%	21,34%
Sirdaryo viloyati	9,60%	40,36%	18,99%	11,59%	19,46%
Surxondaryo viloyati	8,34%	47,18%	15,34%	9,77%	19,37%
Toshkent shahri	9,53%	42,93%	15,03%	11,18%	21,33%
Toshkent viloyati	8,92%	43,53%	14,44%	10,84%	22,28%
Xorazm viloyati	8,12%	46,73%	14,94%	10,33%	19,88%

30-jadval. O'quv qo'llanmalari va darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasiga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududiy natijalar o'quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatlari respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma muayyan fan, ta'lim yo'nalishi, o'qitish tili yoki adabiyot shakli bo'yicha etishmovchilikni aniqlamaydi. Shu bois muammoli javoblar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda **kutubxona fondlarining fanlar va tillar bo'yicha tarkibi, elektron resurslardan foydalanish imkoniyati hamda asosiy darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasini** qo'shimcha o'rganish zarur.

10.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil o'quv adabiyotlari va ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlikka berilgan baholar sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda to'liq ta'minlanganlikni bildirgan javoblar deyarli mutlaq ustunlik qilsa, boshqalarida adabiyotlar yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan.

O'quv adabiyotlari bilan **to'liq ta'minlanganlikni** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi ISFT institutida qayd etilib, **97,85 foizni** tashkil etgan. Mazkur OTTda adabiyotlarning tez-tez yoki doimiy ravishda yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan javoblarning umumiy ulushi 1,88 foizga teng bo'lgan.

To'liq ta'minlanganlik ko'rsatkichi Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida 97,37 foizni, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida 94,17 foizni va Buxoro innovatsiyalar universitetida 90,42 foizni tashkil etgan. «Tashkent International University of Education» xalqaro universitetida ushbu ko'rsatkich 82,61 foizga, Amiti universitetida esa 76,27 foizga teng bo'lgan.

O'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlanganlikka eng yuqori baho berilgan OTTlar 31-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Adabiyotlar tez-tez etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir qiladi	Adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan	Ba'zan adabiyotlar etishmaydi, ammo bu ta'lim jarayoniga xalaqit bermaydi	Adabiyotlar davriy ravishda etishmaydi, biroq jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi	Adabiyotlar doimiy ravishda etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi
ISFT instituti	0,12%	97,85%	0,15%	0,12%	1,76%
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	0,13%	97,37%	2,01%	0,00%	0,50%
G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	0,14%	94,17%	3,89%	0,69%	1,11%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	1,15%	90,42%	3,28%	1,31%	3,84%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	1,27%	82,61%	6,45%	4,33%	5,34%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	2,33%	76,27%	8,37%	4,12%	8,92%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	7,24%	69,41%	12,83%	5,59%	4,93%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	3,10%	67,86%	8,75%	8,33%	11,96%
Milliy tadqiqot texnologik universiteti MISiS filiali	2,34%	66,67%	10,72%	7,60%	12,67%
«Ma'mun» universiteti	4,26%	64,07%	8,61%	9,08%	13,97%

31-jadval. O'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlanganlikni bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda o'quv adabiyotlarining doimiy yetishmasligi ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan javoblar nisbatan yuqori ulushni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich **Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida 33,00 foizni**, Toshkent davlat transport universitetida 32,27 foizni, Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida

29,81 foizni va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialida 29,79 foizni tashkil etgan.

Adabiyotlarning tez-tez yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 14,58 foiz bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Milliy universitetida 13,96 foizni, Toshkent davlat texnika universitetida 12,94 foizni va Toshkent davlat transport universitetida 11,63 foizni tashkil etgan.

Adabiyotlarning tez-tez va doimiy ravishda yetishmasligiga oid javoblar birgalikda hisoblanganda, ularning umumiy ulushi Toshkent davlat transport universitetida **43,90 foizni**, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 43,53 foizni, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida 43,00 foizni hamda Toshkent davlat texnika universitetida 42,45 foizni tashkil etgan.

O'quv adabiyotlari yetishmasligiga oid muammoli javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 32-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Adabiyotlar tez-tez etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir qiladi	Adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan	Ba'zan adabiyotlar etishmaydi, ammo bu ta'lim jarayoniga xalaqit bermaydi	Adabiyotlar davriy ravishda etishmaydi, biroq jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi	Adabiyotlar doimiy ravishda etishmaydi, bu ta'lim jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	10,00%	35,70%	13,80%	7,50%	33,00%
Toshkent davlat transport universiteti	11,63%	32,20%	12,74%	11,17%	32,27%
Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	7,69%	39,42%	9,62%	13,46%	29,81%
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	6,85%	40,30%	10,73%	12,33%	29,79%
Toshkent davlat texnika universiteti	12,94%	31,49%	14,14%	11,92%	29,51%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	10,45%	33,85%	14,62%	11,70%	29,38%
Qoraqalpoq qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti	10,16%	35,06%	13,79%	11,67%	29,31%
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	14,58%	25,02%	17,69%	13,76%	28,95%
Diplomat universiteti	9,54%	40,95%	13,32%	7,57%	28,62%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	13,96%	27,20%	17,05%	13,94%	27,85%

32-jadval. O'quv adabiyotlarining yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi natijalar o'quv adabiyotlari va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma ma'lumotlari etishmovchilikning muayyan fan, ta'lim yo'nalishi, o'qitish tili yoki resurs shakliga tegishli ekanini belgilamaydi. Shu sababli muammoli javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlarda **fanlar va ta'lim tillari bo'yicha asosiy adabiyotlar fondi, elektron resurslarga kirish imkoniyati, darsliklarning yangilanish davriyligi hamda ulardan foydalanish statistikasini** qo'shimcha tahlil qilish zarur.

XI. NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALAR UCHUN YARATILGAN SHAROITLARNING BAHOLANISHI

11.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

So'rovnoma natijalari nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga berilgan baholar OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi. Respondentlarning aksariyati zarur sharoitlar to'liq, etarli yoki qisman mavjudligini bildirgan bo'lsa-da, ayrim javoblarda bunday sharoitlar mavjud emasligi yoki amalda etarli ishlamasligi qayd etilgan.

Barcha zarur sharoitlar **to'liq ta'minlanganini** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi xorijiy OTTlarda qayd etilib, **38,69 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich nodavlat OTTlarda 35,58 foizga, davlat OTTlarida esa 28,23 foizga teng bo'lgan.

To'liq, etarli va qisman mavjud sharoitlarga oid uchta ijobiy javob birgalikda hisoblanganda, ularning umumiy ulushi **nodavlat OTTlarda 88,35 foizni**, davlat OTTlarida 86,99 foizni va xorijiy OTTlarda 81,25 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, zarur sharoitlar mavjud emasligi yoki ular rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amalda etarli ishlamasligini bildirgan javoblarning umumiy ulushi xorijiy OTTlarda **18,75 foiz** bilan eng yuqori bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich davlat OTTlarida 13,00 foizni, nodavlat OTTlarda esa 11,65 foizni tashkil etgan.

Xorijiy OTTlarda respondentlarning 11,55 foizi zarur sharoitlar mavjud emasligini, 7,20 foizi esa bunday sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amalda etarli emasligini bildirgan. Davlat OTTlarida mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 6,84 va 6,16 foizni, nodavlat OTTlarda 7,06 va 4,59 foizni tashkil etgan.

Nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar 33-jadvalda keltirilgan.

Mulkchilik shakli	Qisman mavjud, ayrim sharoitlar yaratilgan	Umuman olganda, sharoitlar etarli	To'liq mavjud va barcha zarur sharoitlar ta'minlangan	Sharoitlar mavjud emas	Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud, ammo amalda etarli emas
Davlat OTTlari	11,95%	46,81%	28,23%	6,84%	6,16%
Nodavlat OTTlari	12,87%	39,90%	35,58%	7,06%	4,59%
Xorijiy OTTlari	9,76%	32,80%	38,69%	11,55%	7,20%

33-jadval. Nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlar respondentlar tomonidan asosan ijobiy baholanganini ko'rsatadi. Biroq mazkur so'rovnomadagi javoblar barcha talabalar fikrini ifodalaydi va ularni infratuzilmaning amaldagi foydalanish imkoniyatini to'liq tasdiqlovchi baholash sifatida qabul qilish mumkin emas. Shu bois **nogironligi bo'lgan talabalarning bevosita tajribasini alohida o'rganish**, shuningdek, binolarga kirish, harakatlanish, sanitariya xonalari, axborot resurslari, raqamli platformalar va o'quv jarayonining moslashtirilganligini maxsus auditdan o'tkazish zarur.

11.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Hududlar kesimidagi tahlil nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga berilgan baholar asosan ijobiy ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zarur sharoitlarning to'liq ta'minlanganligi, qisman mavjudligi yoki amalda etarli ishlamasligi bo'yicha hududlar o'rtasida muayyan farqlar kuzatilgan.

To'liq, etarli va qisman mavjud sharoitlarga oid uchta ijobiy javobning umumiy ulushi **Xorazm viloyatida 92,02 foizni** tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 90,65 foiz, Andijon viloyatida 90,24 foiz, Buxoro viloyatida 88,85 foiz va Farg'ona viloyatida 88,69 foizga teng bo'lgan.

Barcha zarur sharoitlar **to'liq ta'minlanganini** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi ham Xorazm viloyatida qayd etilib, 39,25 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 35,68 foiz, Andijon viloyatida 34,68 foiz, Farg'ona viloyatida 33,31 foiz va Buxoro viloyatida 33,20 foizga teng bo'lgan.

Zarur sharoitlar mavjud emasligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Navoiy viloyatida - 9,75 foiz** bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich

Toshkent viloyatida 8,17 foizni, Toshkent shahrida 7,91 foizni, Samarqand viloyatida 7,66 foizni va Qashqadaryo viloyatida 7,56 foizni tashkil etgan.

Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amalda etarli emasligini bildirgan javoblarning eng yuqori ulushi Toshkent shahrida 6,69 foiz, Toshkent viloyatida 6,52 foiz, Navoiy viloyatida 6,17 foiz va Samarqand viloyatida 6,10 foiz miqdorida qayd etilgan.

Zarur sharoitlar mavjud emasligi va amalda etarli ishlamasligiga oid javoblar birgalikda hisoblanganda, ularning umumiy ulushi Navoiy viloyatida **15,92 foizni**, Toshkent viloyatida 14,69 foizni va Toshkent shahrida 14,60 foizni tashkil etgan.

Nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga hududlar bo'yicha berilgan baholar 34-jadvalda keltirilgan.

HUDUD	Qisman mavjud, ayrim sharoitlar yaratilgan	Umuman olganda, sharoitlar etarli	To'liq mavjud va barcha zarur sharoitlar ta'minlangan	Sharoitlar mavjud emas	Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud, ammo amalda etarli emas
Andijon viloyati	10,45%	45,11%	34,68%	5,37%	4,39%
Buxoro viloyati	9,89%	45,76%	33,20%	6,13%	5,03%
Farg'ona viloyati	10,37%	45,01%	33,31%	6,24%	5,07%
Jizzax viloyati	12,29%	48,05%	26,87%	6,91%	5,89%
Namangan viloyati	11,77%	46,35%	29,39%	6,76%	5,73%
Navoiy viloyati	10,60%	44,13%	29,34%	9,75%	6,17%
Qashqadaryo viloyati	12,07%	43,92%	30,63%	7,56%	5,83%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17,00%	41,14%	29,77%	6,17%	5,92%
Samarqand viloyati	11,97%	45,86%	28,41%	7,66%	6,10%
Sirdaryo viloyati	13,46%	45,00%	30,06%	5,92%	5,56%
Surxondaryo viloyati	9,25%	45,72%	35,68%	4,95%	4,40%
Toshkent shahri	14,43%	44,37%	26,60%	7,91%	6,69%
Toshkent viloyati	11,57%	45,47%	28,28%	8,17%	6,52%
Xorazm viloyati	10,11%	42,66%	39,25%	4,10%	3,88%

34-jadval. Nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga hududlar bo'yicha berilgan baholar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududiy natijalar nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlar respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Biroq bu javoblar inklyuziv infratuzilmaning texnik talablarga muvofiqligini to'liq

tasdiqlamaydi. Shu bois muammoli baholar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda **binolarga to'siqsiz kirish, ichki harakatlanish, sanitariya xonalari, axborot va raqamli resurslardan foydalanish hamda o'quv jarayonini moslashtirish holatini** maxsus audit asosida o'rganish zarur.

11.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga berilgan baholar sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayrim OTTlarda barcha zarur sharoitlar to'liq ta'minlanganini bildirgan javoblar ustun bo'lsa, boshqalarida bunday sharoitlar mavjud emasligi yoki amalda etarli ishlamasligiga oid fikrlar nisbatan ko'p qayd etilgan.

Barcha zarur sharoitlar **to'liq ta'minlanganini** bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida qayd etilib, **94,48 foizni** tashkil etgan. Mazkur OTTda sharoitlar mavjud emasligi yoki amalda etarli ishlamasligiga oid javoblarning umumiy ulushi 0,13 foizga teng bo'lgan.

To'liq ta'minlanganlik ko'rsatkichi Central Asian Medical Universityda 90,23 foizni, Buxoro innovatsiyalar universitetida 69,07 foizni, Amiti universitetida 64,56 foizni va Adju universitetida 60,36 foizni tashkil etgan. «Tashkent International University of Education» xalqaro universitetida ushbu ko'rsatkich 53,41 foizga teng bo'lgan.

Nogironligi bo'lgan talabalar uchun barcha zarur sharoitlar to'liq ta'minlanganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar 35-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qisman mavjud, ayrim sharoitlar yaratilgan	Umuman olganda, sharoitlar etarli	To'liq mavjud va barcha zarur sharoitlar ta'minlangan	Sharoitlar mavjud emas	Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud, ammo amalda etarli emas
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	2,38%	3,01%	94,48%	0,00%	0,13%
Central Asian Medical University	1,10%	6,19%	90,23%	1,79%	0,69%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	2,34%	26,12%	69,07%	0,97%	1,50%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	5,28%	21,42%	64,56%	4,98%	3,77%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	10,66%	18,50%	60,36%	6,65%	3,84%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	11,18%	26,11%	53,41%	6,73%	2,57%
Toshkent shahridagi Belarus–O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik malakalar instituti	5,45%	28,15%	50,84%	9,71%	5,85%
«Ma'mun» universiteti	8,65%	34,07%	50,13%	4,31%	2,84%
«Turon» universiteti	8,46%	31,70%	49,04%	7,07%	3,72%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	15,21%	30,39%	45,64%	6,32%	2,45%

35-jadval. Nogironligi bo'lgan talabalar uchun barcha zarur sharoitlar to'liq ta'minlanganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, ayrim OTTlarda zarur sharoitlar mavjud emasligini bildirgan javoblar yuqori ulushni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich **Qozon federal universitetining Jizzax filialida 38,32 foizni**, «Yangi O'zbekiston» universitetida 32,89 foizni va Astraxan davlat texnika universiteti filialida 27,59 foizni tashkil etgan.

Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amalda etarli emasligini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida 14,43 foiz bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich Toshkent shahridagi Puchon universitetida 14,41 foizni, Diplomat universitetida 12,56 foizni va Astraxan davlat texnika universiteti filialida 10,34 foizni tashkil etgan.

Zarur sharoitlar mavjud emasligi va amalda etarli ishlamasligiga oid javoblar birgalikda hisoblanganda, ularning umumiy ulushi **Qozon federal**

universitetining Jizzax filialida 42,99 foizni, «Yangi O‘zbekiston» universitetida 39,52 foizni, Astraxan davlat texnika universiteti filialida 37,93 foizni va Toshkent shahridagi Puchon universitetida 34,33 foizni tashkil etgan.

Nogironligi bo‘lgan talabalar uchun yaratilgan sharoitlarga oid muammoli javoblar ulushi yuqori bo‘lgan OTTlar 36-jadvalda keltirilgan.

OTT nomi	Qisman mavjud, ayrim sharoitlar yaratilgan	Umuman olganda, sharoitlar etarli	To‘liq mavjud va barcha zarur sharoitlar ta‘minlangan	Sharoitlar mavjud emas	Sharoitlar rasmiy jihatdan mavjud, ammo amalda etarli emas
O‘zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	7,79%	26,79%	22,43%	38,32%	4,67%
Yangi O‘zbekiston universiteti	14,32%	31,30%	14,85%	32,89%	6,63%
Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	0,00%	44,83%	17,24%	27,59%	10,34%
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali	20,22%	26,97%	29,21%	22,47%	1,12%
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	10,34%	32,95%	29,12%	21,84%	5,75%
Puchon universiteti	2,54%	55,08%	8,05%	19,92%	14,41%
Diplomat universiteti	7,23%	41,14%	19,79%	19,28%	12,56%
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	15,13%	35,92%	15,90%	18,63%	14,43%
O‘zbekistondagi Sharda universiteti	14,70%	34,29%	27,09%	18,16%	5,76%
University of management and future technologies	12,85%	39,57%	21,53%	17,02%	9,02%

36-jadval. Nogironligi bo‘lgan talabalar uchun zarur sharoitlar mavjud emasligi yoki amalda etarli ishlamasligini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo‘lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so‘rovnoma ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

OTTlar kesimidagi natijalar inklyuziv sharoitlar respondentlar tomonidan turlicha baholanganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu javoblar umumiy talabalar kontingenti fikrini ifodalaydi va nogironligi bo‘lgan talabalarining bevosita tajribasi yoki infratuzilmaning texnik talablarga muvofiqligini to‘liq tasdiqlamaydi. Shu bois muammoli baholar ulushi yuqori bo‘lgan OTTlarda **nogironligi bo‘lgan talabalar ishtirokida alohida so‘rov va fokus-guruhlar**


o'tkazish, shuningdek, jismoniy va raqamli muhitning foydalanish imkoniyatini maxsus audit asosida baholash zarur.

XII. PSIXOLOGIK BOSIM VA KAMSITISH HOLATLARINING TARQALGANLIK DARAJASI

12.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

Ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik, o'zaro hurmat va kamsitishga yo'l qo'yilmasligi talabalarning farovonligi hamda ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishi uchun muhim ahamiyatga ega. So'rovnoma natijalari respondentlarning aksariyati **psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini** ko'rsatadi. Biroq mazkur ko'rsatkichlar OTTlarning mulkchilik shakllari bo'yicha muayyan darajada farqlanadi.

Psixologik bosim va kamsitish holatlariga oid javoblarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimoti **4-rasmda keltirilgan**.



4-rasm. Psixologik bosim va kamsitish holatlarining mavjudligiga OTTlarning mulkchilik shakllari bo'yicha berilgan javoblar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Eng ijobiy natija xorijiy OTTlarda qayd etilgan: respondentlarning **88,8 foizi** psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini bildirgan. Bunday holatlarni qayd etgan talabalar ulushi **11,2 foizni** tashkil etgan.

Nodavlat OTTlarda respondentlarning **85,1 foizi** psixologik bosim yoki kamsitish holatlari mavjud emasligini, **14,9 foizi** esa bunday holatlarga duch kelganini bildirgan.

Davlat OTTlarida psixologik bosim yoki kamsitish holatlarini qayd etgan respondentlar ulushi **19,6 foizni** tashkil etib, mulkchilik shakllari orasidagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan. Mazkur toifada talabalarning **80,4 foizi** bunday holatlarga duch kelmaganini bildirgan. Davlat va xorijiy OTTlar o'rtasida salbiy javoblar bo'yicha farq **8,4 foiz punktga** teng.

Natijalar xorijiy va nodavlat OTTlarda psixologik muhitga berilgan baholar nisbatan ijobiy ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda davlat OTTlarida psixologik bosim yoki kamsitish holatlarini qayd etgan respondentlar ulushining nisbatan yuqoriligi **profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish, maxfiy murojaat kanallarini takomillashtirish va talabalarga psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish** zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar respondentlarning shaxsiy tajribasi va subyektiv baholarini ifodalaydi. Shu sababli ular psixologik bosim yoki kamsitish holatlarining shakli, sababi va og'irlik darajasini to'liq belgilab bermaydi. Ushbu jihatlarni aniqlash uchun maqsadli so'rovlar, maxfiy murojaatlar tahlili va sifat usullariga asoslangan qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

12.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga oid javoblarni hududlar kesimida tahlil qilish respondentlar baholari o'rtasida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Barcha hududlarda talabalarning aksariyati bunday holatlarga duch kelmaganini bildirgan. Javoblarning batafsil taqsimoti **37-jadvalda keltirilgan**.

HUDUD	Ha	Yo'q
Andijon viloyati	15,35%	84,65%
Buxoro viloyati	18,96%	81,04%
Farg'ona viloyati	17,46%	82,54%
Jizzax viloyati	18,07%	81,93%
Namangan viloyati	17,30%	82,70%
Navoiy viloyati	15,96%	84,04%
Qashqadaryo viloyati	16,14%	83,86%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19,26%	80,74%
Samarqand viloyati	19,96%	80,04%
Sirdaryo viloyati	13,80%	86,20%
Surxondaryo viloyati	15,60%	84,40%
Toshkent shahri	20,17%	79,83%
Toshkent viloyati	19,07%	80,93%
Xorazm viloyati	16,64%	83,36%

37-jadval. Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelganlik bo'yicha javoblarning hududlar kesimida taqsimoti, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlar ulushi **Sirdaryo viloyatida 86,20 foizni** tashkil etib, hududlar orasidagi eng yuqori natija bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich Andijon viloyatida **84,65 foiz**, Surxondaryo viloyatida **84,40 foiz**, Navoiy viloyatida **84,04 foiz** va Qashqadaryo viloyatida **83,86 foizni** tashkil etgan.

Bunday holatlarga duch kelganini bildirgan respondentlar ulushi **Toshkent shahrida 20,17 foiz** bilan eng yuqori darajada qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati – **19,96 foiz**, Qoraqalpog'iston Respublikasi – **19,26 foiz**, Toshkent viloyati – **19,07 foiz** va Buxoro viloyati – **18,96 foiz** bilan joylashgan.

Eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq **6,37 foiz punktni** tashkil etadi. Natijalar ayrim hududlarda talabalarning psixologik xavfsizligini ta'minlash, maxfiy murojaat kanallarini rivojlantirish va kamsitish holatlarining oldini olishga qaratilgan choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq hududlar o'rtasidagi farqlarning sabablarini aniqlash uchun OTTlar tarkibi, respondentlar soni va ta'lim muhitining xususiyatlarini qamrab oluvchi qo'shimcha tahlil talab etiladi.

12.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelganini bildirgan respondentlar ulushi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Bunday holatlarni qayd etgan talabalar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan OTTlar **38-jadvalda keltirilgan.**

OTT nomi	Ha	Yo'q
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	31,04%	68,96%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	30,43%	69,57%
Samarqand davlat tibbiyot universiteti	28,71%	71,29%
O'zbekiston davlat konservatoriyasi	28,52%	71,48%
Toshkent davlat transport universiteti	28,14%	71,86%
Toshkent davlat texnika universiteti	27,63%	72,37%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	27,58%	72,42%
Buxoro davlat tibbiyot instituti	27,27%	72,73%
Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	27,18%	72,82%
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	26,92%	73,08%

38-jadval. Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Psixologik bosim yoki kamsitish holatlarini qayd etgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida – 31,04 foiz** va **Toshkent arxitektura-qurilish universitetida – 30,43 foizni** tashkil etgan.

Mazkur ko'rsatkich Samarqand davlat tibbiyot universitetida **28,71 foiz**, O'zbekiston davlat konservatoriyasida **28,52 foiz** va Toshkent davlat transport universitetida **28,14 foiz** bo'lgan. Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ham respondentlarning to'rtidan bir qismidan ko'prog'i bunday holatlarni qayd etgan.

Ayni paytda psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar ham mavjud. Ularning natijalari **39-jadvalda keltirilgan.**

OTT nomi	Ha	Yo'q
ISFT instituti	0,47%	99,53%
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	0,63%	99,37%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	3,14%	96,86%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	3,15%	96,85%
Central Asian Medical University	4,40%	95,60%
G,V, Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	4,44%	95,56%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	5,35%	94,65%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	7,03%	92,97%
Toshkent shahridagi Amiti universiteti	8,92%	91,08%
O'zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	9,28%	90,72%

39-jadval. Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Psixologik bosim yoki kamsitish holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **ISFT institutida – 99,53 foiz** va **Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida – 99,37 foizni** tashkil etgan. Ushbu OTTlarda bunday holatlarni qayd etganlar ulushi mos ravishda 0,47 va 0,63 foiz bo'lgan.

Ijobiy javoblar «Tashkent International University of Education» xalqaro universitetida **96,86 foiz**, Buxoro innovatsiyalar universitetida **96,85 foiz**, Central Asian Medical Universityda **95,60 foiz** va G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filialida **95,56 foizni** tashkil etgan.

Natijalar psixologik xavfsizlikka oid talabalar baholari OTTlar kesimida bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi. **Salbiy javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlarda** maxfiy murojaat kanallari, psixologik maslahat xizmatlari, kamsitishning oldini olish tartiblari va murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini qo'shimcha o'rganish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, so'rovnoma natijalari rasman tasdiqlangan holatlar sonini emas, respondentlarning shaxsiy tajribasi va baholarini ifodalaydi. Javoblarga talabalarning xabardorligi, murojaat qilish madaniyati va psixologik

bosim yoki kamsitish tushunchalarini talqin etishdagi farqlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XIII. AKADEMIK HALOLLIK TAMOYILLARIGA RIOYA ETILISHI

13.1. OTTlarning mulkchilik shakli bo'yicha natijalar

Akademik halollik ta'lim jarayonining ishonchliligi, baholash natijalarining xolisligi va OTTlardagi akademik madaniyat sifatini belgilaydigan muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. So'rovnoma natijalari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, respondentlarning aksariyati akademik halollik tamoyillari buzilishi holatlariga duch kelmaganini ko'rsatadi. Javoblarning taqsimoti **40-jadvalda keltirilgan**.

Mulkchilik shakli	Ha, ba'zan	Ha, tez-tez	Javob berishga qiynalaman	Yo'q
Davlat OTTlari	11,02%	3,25%	9,85%	75,89%
Nodavlat OTTlari	8,77%	2,65%	8,55%	80,04%
Xorijiy OTTlari	8,30%	3,28%	13,33%	75,09%

40-jadval. Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelganlik bo'yicha javoblarning OTTlar mulkchilik shakllari kesimida taqsimoti, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **nodavlat OTTlarda – 80,04 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich davlat OTTlarida **75,89 foiz**, xorijiy OTTlarda esa **75,09 foiz** bo'lgan.

«Ha, ba'zan» va «Ha, tez-tez» javoblari birgalikda hisoblanganda, akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlarini qayd etgan respondentlar ulushi **davlat OTTlarida 14,27 foiz**, xorijiy OTTlarda **11,58 foiz** va nodavlat OTTlarda **11,42 foizni** tashkil etgan. Shu tariqa, mazkur holatlarni qayd etganlarning eng yuqori umumiy ulushi davlat OTTlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bunday holatlarga tez-tez duch kelishini bildirganlar ulushi xorijiy OTTlarda **3,28 foiz**, davlat OTTlarida **3,25 foiz** va nodavlat OTTlarda **2,65 foiz** bo'lgan. Xorijiy OTTlarda «javob berishga qiynalaman» javobining **13,33 foiz** bilan nisbatan yuqoriligi alohida e'tibor talab qiladi. Bu akademik halollik qoidalari, qoidabuzarliklarni aniqlash mezonlari yoki ular haqida xabar berish tartiblari bo'yicha xabardorlik darajasida farqlar mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Natijalar barcha mulkchilik shakllarida akademik halollik madaniyatini mustahkamlash, talabalarni belgilangan qoidalar va murojaat mexanizmlari haqida xabardor qilish hamda qoidabuzarliklarning oldini olish choralarini izchil takomillashtirish zarurligini anglatadi. Biroq ushbu ko'rsatkichlar rasman tasdiqlangan qoidabuzarliklar sonini emas, respondentlarning shaxsiy tajribasi va baholarini ifodalaydi.

13.2. Hududlar kesimidagi natijalar

Akademik halollik tamoyillarining buzilishiga oid javoblarni hududlar kesimida tahlil qilish respondentlar baholari o'rtasida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Barcha hududlarda bunday holatlarga duch kelmaganini bildirganlar ko'pchilikni tashkil etgan. Javoblarning to'liq taqsimoti **41-jadvalda keltirilgan.**

HUDUD	Ha, ba'zan	Ha, tez-tez	Javob berishga qiyinalaman	Yo'q
Andijon viloyati	8,87%	2,28%	9,10%	79,75%
Buxoro viloyati	9,26%	2,91%	8,42%	79,41%
Farg'ona viloyati	9,88%	2,84%	9,17%	78,10%
Jizzax viloyati	11,67%	3,11%	8,68%	76,54%
Namangan viloyati	9,86%	2,92%	9,35%	77,88%
Navoiy viloyati	8,94%	2,57%	8,70%	79,80%
Qashqadaryo viloyati	10,28%	3,09%	9,58%	77,05%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,53%	2,78%	8,92%	78,78%
Samarqand viloyati	12,20%	3,52%	9,79%	74,49%
Sirdaryo viloyati	9,22%	2,08%	8,22%	80,48%
Surxondaryo viloyati	8,84%	2,11%	7,47%	81,58%
Toshkent shahri	11,49%	3,70%	11,09%	73,73%
Toshkent viloyati	10,57%	3,46%	9,76%	76,21%
Xorazm viloyati	8,85%	2,53%	8,50%	80,12%

41-jadval. Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelganlik bo'yicha javoblarning hududlar kesimida taqsimoti, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Surxondaryo viloyatida – 81,58 foizni** tashkil etgan. Keyingi yuqori natijalar Sirdaryo viloyatida **80,48 foiz**, Xorazm viloyatida **80,12 foiz**, Navoiy viloyatida **79,80 foiz** va Andijon viloyatida **79,75 foiz** miqdorida qayd etilgan.

«Ha, ba'zan» va «Ha, tez-tez» javoblari birgalikda hisoblanganda, akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlarini qayd etgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Samarqand viloyatida – 15,72 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich Toshkent shahrida **15,19 foiz**, Jizzax viloyatida **14,78 foiz**, Toshkent viloyatida **14,03 foiz** va Qashqadaryo viloyatida **13,37 foiz** bo'lgan.

Bunday holatlarga tez-tez duch kelishini bildirgan respondentlar ulushi **Toshkent shahrida 3,70 foiz** bilan eng yuqori bo'lgan. Keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati – **3,52 foiz**, Toshkent viloyati – **3,46 foiz** va Jizzax viloyati – **3,11 foiz** bilan joylashgan.

«Javob berishga qiynalaman» javobining eng yuqori ulushi ham **Toshkent shahrida – 11,09 foizni** tashkil etgan. Bu ayrim hududlarda talabalarining akademik halollik qoidalari, qoidabuzarliklarni aniqlash mezonlari va ular haqida xabar berish tartiblari bo'yicha xabardorligini oshirish zarurligini ko'rsatishi mumkin.

Natijalar hududlarda akademik halollik madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan choralarni bir xil emas, balki mavjud holat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Biroq farqlarning sabablarini aniqlashda hududlardagi OTTlar tarkibi va respondentlar qamrovini ham inobatga olish zarur.

13.3. OTTlar kesimidagi natijalar

OTTlar kesimidagi tahlil akademik halollik tamoyillarining buzilishiga oid respondentlar baholari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Bunday holatlarga duch kelmaganini bildirgan talabalar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar **42-jadvalda keltirilgan.**

OTT nomi	Ha, ba'zan	Ha, tez-tez	Javob berishga qiynalaman	Yo'q
Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	0,13%	0,00%	0,13%	99,75%
Buxoro innovatsiyalar universiteti	1,03%	0,31%	1,09%	97,57%
Central Asian Medical University	1,92%	0,41%	1,51%	96,15%
ISFT instituti	0,24%	0,08%	6,77%	92,91%
«Tashkent International University of Education» xalqaro universiteti	5,26%	0,42%	5,43%	88,89%
Toshkent amaliy fanlar universiteti	5,05%	1,16%	5,07%	88,71%
Toshkent shahridagi Adju universiteti	5,59%	1,40%	4,61%	88,40%
Toshkent shahridagi Belarus–O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik malakalar instituti	4,57%	1,74%	5,40%	88,29%
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	6,50%	1,93%	5,27%	86,31%
«Ma'mun» universiteti	5,60%	1,83%	6,69%	85,89%

42-jadval. Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelmaganini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi **Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida – 99,75 foizni** tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich Buxoro innovatsiyalar universitetida **97,57 foiz**, Central Asian Medical Universityda **96,15 foiz** va ISFT institutida **92,91 foiz** bo'lgan.

Ushbu OTTlarda qoidabuzarliklarga tez-tez duch kelishini bildirgan respondentlar ulushi juda past: Toshkent shahridagi Britaniya menejment universitetida bunday javob qayd etilmagan, ISFT institutida **0,08 foiz**, Buxoro innovatsiyalar universitetida **0,31 foiz** va Central Asian Medical Universityda **0,41 foizni** tashkil etgan.

Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlarini nisbatan ko'p qayd etgan respondentlar ulushiga ega OTTlar **43-jadvalda keltirilgan**.

OTT nomi	Ha, ba'zan	Ha, tez-tez	Javob berishga qiynalaman	Yo'q
Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	15,53%	8,74%	8,74%	66,99%
O'zbekiston Respublikasi Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	5,80%	7,54%	6,67%	80,00%
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	18,40%	6,70%	34,38%	40,51%
Diplomat universiteti	12,54%	6,11%	17,33%	64,03%
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	15,21%	5,78%	13,87%	65,14%
Toshkent davlat yuridik universiteti	13,09%	5,69%	9,11%	72,11%
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	18,16%	5,60%	11,30%	64,93%
Qarshi xalqaro universiteti	10,21%	5,55%	12,00%	72,24%
O'zbekistondagi Sharda universiteti	18,28%	5,54%	14,40%	61,77%
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	15,19%	5,40%	13,12%	66,30%

43-jadval. Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga duch kelganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lgan OTTlar, 2026-yil (%)

Manba: Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Akademik halollik tamoyillarining buzilishi holatlariga **tez-tez** duch kelishini bildirgan respondentlarning eng yuqori ulushi Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida **8,74 foiz**ni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Qozon federal universitetining Jizzax filiali – **7,54 foiz**, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti – **6,70 foiz**, Diplomat universiteti – **6,11 foiz** va Toshkent arxitektura-qurilish universiteti – **5,78 foiz** bilan joylashgan.

«Ha, ba'zan» va «Ha, tez-tez» javoblari birgalikda hisoblanganda, bunday holatlarni qayd etgan respondentlar ulushi **Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 25,10 foiz**, Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetida **24,27 foiz**, Sharda universitetida **23,82 foiz** va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida **23,76 foiz**ni tashkil etgan.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida «javob berishga qiynalaman» javobining **34,38 foiz** bilan juda yuqori ekani alohida e'tibor talab qiladi. Bu natija talabalarning akademik qoidabuzarliklarni aniqlash mezonlari

yoki ular haqida xabar berish tartiblari bo'yicha tushunchalari bir xil emasligini ko'rsatishi mumkin.

Natijalar salbiy javoblar ulushi yuqori bo'lgan OTTlarda akademik halollik qoidalarini tushuntirish, qoidabuzarliklar haqida maxfiy xabar berish imkoniyatlarini kengaytirish va murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini qo'shimcha o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Biroq so'rovnoma ma'lumotlari rasman tasdiqlangan qoidabuzarliklar sonini emas, talabalarning shaxsiy tajribasi va baholarini aks ettiradi.

XIV. ASOSIY XULOSALAR VA AMALIY TAVSIYALAR

14.1. Tahlilning umumlashtirilgan natijalari

Umummilliy sotsiologik so'rovnoma natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi ta'lim muhitini talabalar nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini berdi. Tadqiqotda o'qitish va baholash jarayonlari bilan bir qatorda raqamli xizmatlar, moddiy-texnik infratuzilma, o'quv resurslari, ijtimoiy-maishiy sharoitlar, inklyuzivlik, psixologik xavfsizlik hamda akademik halollik masalalari qamrab olindi.

Umumiy natijalar ijobiy baholar ustunligini ko'rsatadi. Respondentlarning aksariyati ta'lim jarayoni, professor-o'qituvchilar bilan munosabatlar, baholash tizimi va asosiy raqamli xizmatlarni ijobiy baholagan. Biroq umumiy ijobiy natijalar ayrim hududlar va OTTlarda qayd etilgan muammoli baholarni istisno etmaydi.

Ta'lim muhiti sifati bo'yicha farqlar uch darajada namoyon bo'lgan: mulkchilik shakllari, hududlar va alohida OTTlar kesimida. Nodavlat va xorijiy OTTlar qator ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan yuqori baholarni qayd etgan bo'lsa-da, bu ustunlik barcha yo'nalishlarda bir xil kuzatilmagan. Demak, mulkchilik shakli natijalarga ta'sir etishi mumkin bo'lgan tashkiliy omillardan biri hisoblanadi, ammo uni farqlarning yagona sababi sifatida talqin qilish mumkin emas.

Hududiy va tashkiliy farqlarning bir nechta yo'nalishlarda takrorlanishi alohida ahamiyatga ega. Ayrim hududlar va OTTlarda o'quv resurslari, infratuzilma, raqamli xizmatlar, talabalar turar joylari va psixologik muhitga oid tanqidiy baholar muntazamroq uchragan. Bu farqlar umumiy respublika ko'rsatkichlari ortida mahalliy va tashkiliy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Moddiy-texnik, raqamli va inklyuziv muhit ta'lim sifatining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'lgan. Auditoriya va laboratoriyalarning holati, o'quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyati, «HEMIS» axborot tizimining barqaror ishlashi, talabalar turar joylaridagi sharoitlar hamda nogironligi bo'lgan talabalar uchun yaratilgan muhit bo'yicha baholar OTTlar kesimida sezilarli farq qilgan. Bu ta'lim sifatini faqat dars jarayoni bilan cheklab baholash etarli emasligini ko'rsatadi.

Psixologik xavfsizlik va akademik halollik bo'yicha salbiy javoblar ozchilikni tashkil etsa-da, mazmunan muhim ahamiyatga ega. Ayrim

OTTLarda psixologik bosim, kamsitish yoki akademik qoidabuzarliklarga duch kelganini bildirgan talabalar ulushining nisbatan yuqoriligi umumiy ijobiy natijalar doirasida e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shuningdek, ayrim guruhlarda «javob berishga qiynalaman» variantining yuqoriligi talabalarning mavjud qoidalar va murojaat mexanizmlari haqidagi xabardorligi bir xil emasligini anglatishi mumkin.

Bir nechta yo'nalish bo'yicha barqaror yuqori baholarni qayd etgan OTTlar guruhi shakllangan. Ularning natijalari samarali boshqaruv, talabalar bilan qayta aloqa, xizmatlar sifati va ta'lim muhitini tashkil etishga oid amaliy tajribani o'rganish uchun asos bo'la oladi. Biroq yuqori baholarni OTT faoliyatining barcha jihatlarini to'liq mukammal ekanining isboti sifatida talqin qilish to'g'ri emas.

Tadqiqot natijalarining talqin chegaralari ham inobatga olinishi zarur. So'rovnoma respondentlarning shaxsiy tajribasi va subyektiv baholarini ifodalaydi; u texnik audit, rasmiy murojaatlar statistikasi yoki tasdiqlangan qoidabuzarliklar reestri o'rnini bosmaydi. Javoblarga respondentlar tarkibi, OTTlarda so'rovnomada ishtirok etish madaniyati, savollarni tushunish darajasi va o'z fikrini erkin bildirish imkoniyati ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tahlilning asosiy natijasi shundan iboratki, **talabalar fikri ta'lim muhiti sifatini baholashning muhim, ammo boshqa ma'lumotlar bilan to'ldirilishi lozim bo'lgan manbasi hisoblanadi.** So'rovnoma natijalarini ma'muriy ma'lumotlar, texnik auditlar va sifat usullariga asoslangan tadqiqotlar bilan birgalikda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlarning aniqligi va manzilliligini kuchaytiradi.

14.2. Amaliy tavsiyalar

Tahlil natijalari talabalar fikrini o'rganishni bir martalik tadbir sifatida emas, balki ta'lim sifatini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiladigan **doimiy institutsional mexanizm** sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda talabalar so'rovlari ta'lim sifatini baholashning barqaror tizimi sifatida qo'llanadi. Buyuk Britaniyadagi **National Student Survey** yagona savolnoma, belgilangan o'tkazish tartibi, OTTlar uchun uslubiy ko'rsatmalar va ma'lumotlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari asosida tashkil etiladi. Uning natijalari ta'lim tajribasini yaxshilash, jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni ta'minlash va bo'lajak talabalarga axborot berish uchun

qo'llanadi.⁵ Avstraliyadagi **Student Experience Survey** esa OTTlar va davlat organlariga o'qitish hamda ta'lim olish natijalarini yaxshilashda foydalaniladigan tizimli ma'lumotlarni taqdim etadi.⁶ Mazkur tajribalar O'zbekistonda ham talabalar fikrini muntazam o'rganishga mo'ljallangan yagona tizimni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

1. «Talabalar fikrini o'rganish milliy tizimi»ni (Student Survey) joriy etish. Yagona raqamli platformada barcha OTTlar uchun umumiy asosiy savollar va muayyan yo'nalishlarga mos qo'shimcha modullardan iborat so'rovnoma tizimini shakllantirish zarur. Tizimda so'rovni o'tkazish davriyligi, ishtirokchilar qamrovi, ma'lumotlarni himoya qilish, natijalarni hisoblash va e'lon qilish tartiblari yagona metodologiya asosida belgilanishi lozim.

2. OTTlarda so'rovnomalarni tashkil etish salohiyatini rivojlantirish. Ayrim OTTlarda talabalarni so'rovnomaga jalb qilish, jarayonni xolis tashkil etish va natijalardan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish talab etiladi. Buning uchun mas'ul koordinatorlarni belgilash, ular uchun so'rov metodologiyasi, ma'lumotlar sifati, maxfiylik va natijalarni talqin qilish bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Talabalarning so'rovnomada ongli va mas'uliyatli ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalarga so'rovning maqsadi, javoblarning maxfiyligi va natijalardan qanday foydalanilishi aniq tushuntirilishi kerak. So'rovnomani shoshilinch yoki rasmiy topshiriq sifatida to'ldirish emas, balki ta'lim muhitini yaxshilashda ishtirok etish vositasi sifatida qabul qilish madaniyatini rivojlantirish zarur.

4. Ishtirokning ixtiyoriyligi va javoblarning xolisligini kafolatlash. OTT xodimlari yoki boshqa shaxslarning talabalar javoblariga ta'sir ko'rsatishi, muayyan javobni tanlashga undashi yoki so'rov natijalarini sun'iy ravishda yaxshilashga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. So'rov jarayoni shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va respondentga bosim o'tkazmaslik tamoyillariga asoslanishi kerak.

5. So'rovnoma ma'lumotlarining sifati va ishonchliligini nazorat qilish. Har bir OTT bo'yicha ishtirok darajasi, respondentlar tarkibi va javoblarning to'liqligi muntazam baholanishi zarur. Bir shaxsning takroriy ishtirokini cheklash, biroq javoblar maxfiyligini saqlash, qamrovi past yoki

⁵ Office for Students. *National Student Survey*. Rasmiy ma'lumot va metodologik hujjatlar. [Manba](#). Murojaat qilingan sana: 17.08.2026.

⁶ Quality Indicators for Learning and Teaching. *Student Experience Survey*. [Manba](#). Murojaat qilingan sana: 17.08.2026.

respondentlar soni cheklangan guruhlar natijalarini ehtiyotkor talqin qilish hamda ma'lumotlardagi g'ayritabiiy o'zgarishlarni aniqlash mexanizmlari joriy etilishi lozim.

6. Talabalarga natijalar bo'yicha qayta axborot berish. Har bir so'rov yakunlanganidan keyin OTTlar asosiy natijalar, aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish uchun belgilangan choralar haqida talabalarga umumlashtirilgan ma'lumot taqdim etishi zarur. **«Siz bildirdingiz – biz chora ko'rdik»** tamoyilidagi qayta aloqa talabalarining keyingi so'rovlarda faol va mas'uliyatli ishtirok etishiga xizmat qiladi.

7. OTTlar kesimida maqsadli chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish. Har bir OTT so'rovnoma natijalari asosida past baholangan yo'nalishlarni belgilashi, muammolarning sabablarini qo'shimcha o'rganishi hamda mas'ullar, muddatlar va natija ko'rsatkichlari belgilangan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlashi lozim. Keyingi so'rovlarda ko'rsatkichlar dinamikasi orqali amalga oshirilgan choralarning natijadorligi baholanishi kerak.

8. O'qitish va baholash jarayonlarining ochiqqligini kuchaytirish. Ta'lim dasturlarini talabalar va ish beruvchilar ishtirokida muntazam qayta ko'rib chiqish, baholash mezonlarini oldindan e'lon qilish, talabalarga o'z vaqtida mazmunli qayta aloqa berish hamda apellyatsiya mexanizmlarining amalda ishlashini ta'minlash zarur.

9. Raqamli xizmatlarning barqarorligi va foydalanish qulayligini oshirish. «HEMIS» axborot tizimi va boshqa raqamli xizmatlardagi texnik nosozliklarni monitoring qilish, murojaatlarni tezkor qabul qiladigan yordam xizmatlarini rivojlantirish hamda platformalarning mobil qurilmalar va yordamchi texnologiyalarda ishlash imkoniyatini kengaytirish maqsadga muvofiq.

10. Moddiy-texnik va ijtimoiy infratuzilmani ustuvor ehtiyojlar asosida rivojlantirish. Auditoriyalar, laboratoriyalar, axborot-resurs markazlari va talabalar turar joylarining holatini texnik o'rganish natijalari asosida bosqichma-bosqich modernizatsiya dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bunda xavfsizlik, foydalanish darajasi va talabalar ehtiyoji ustuvor mezonlar sifatida belgilanishi kerak.

11. Inklyuziv ta'lim muhitini bevosita foydalanuvchilar ishtirokida baholash. Nogironligi bo'lgan talabalar bilan alohida so'rovlar va fokus-guruhlar o'tkazish, binolar, axborot resurslari hamda raqamli platformalarning

foydalanish imkoniyatini maxsus auditdan o'tkazish zarur. Aniqlangan jismoniy, axborot va raqamli to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha aniq muddatli choralar belgilanishi lozim.

12. Psixologik xavfsizlik va akademik halollik mexanizmlarini mustahkamlash. Talabalar uchun maxfiy murojaat kanallarini joriy etish, psixologik maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kamsitish holatlarining oldini olish va murojaatlarni xolis ko'rib chiqish tartiblarini belgilash zarur. Shuningdek, akademik halollik qoidalarini tushuntirish, qoidabuzarliklar haqida xabar berish va ularni yagona mezonlar asosida ko'rib chiqish tizimi takomillashtirilishi kerak.

13. Ilg'or tajribani aniqlash va OTTlar o'rtasida tarqatish. Bir nechta yo'nalish bo'yicha barqaror yuqori baholarni qayd etgan OTTlarning samarali amaliyoti o'rganilib, uni boshqa OTTlarning tashkiliy va hududiy xususiyatlariga moslashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu choralar Student Survey tizimini faqat ma'lumot to'plash vositasi emas, balki **talabalar fikriga asoslangan ta'lim sifatini uzluksiz yaxshilash mexanizmiga** aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy va milliy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-76-son Farmoni.

URL: <https://lex.uz/docs/7513052>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2026-yil 6-fevraldagi 8-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risida»gi nizom (ro'yxat raqami 3783, 28.02.2026 y.).

URL: <https://lex.uz/pdf/8067678>

3. «Oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi» – «HEMIS» axborot tizimi.

URL: <https://hemis.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. Talabalar o'rtasida 2026-yil 21-yanvardan 7-fevralga qadar o'tkazilgan Umummilliy sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlari.

II. Xalqaro metodologik manbalar

5. European Association for Quality Assurance in Higher Education. *Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG)*. 2015.

URL: https://www.enqa.eu/wp-content/uploads/2015/11/ESG_2015.pdf

Murojaat qilingan sana: 06.08.2026.

6. Office for Students. *National Student Survey*.

URL: <https://www.officeforstudents.org.uk/nss/>

Murojaat qilingan sana: 17.08.2026.

7. Quality Indicators for Learning and Teaching. *Student Experience Survey*.

URL: <https://qilt.edu.au/surveys/student-experience-survey-%28ses%29>


Murojaat qilingan sana: 17.08.2026.

Muallif: Suleymanov Ruslan

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi rahbari

Muallif: Mullaev Aziz

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori



UMUMMILLIY SO'ROVNOMA

Ochiq fikr — kuchli ta'lim!



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

